

Mavzu: Ta'lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she'rlarini o'rganish usullari

REJA:

KIRISH. BMINING UMUMIY TAVSIFI

I BOB. NAVOIY LIRIKASINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Navoiy – mumtoz adabiyotimiz an'alarining davomchisi

1.2. Maktab va akademik litseyda Navoiy ijodidagi kichik janrlarni o'rganish

II BOB. QIT'A VA RUBOIYLAR BADIYYATINI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ORQALI O'RGATISH

2.1. Navoiy qit'alarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari

2.2. Shoir lirikasidagi kichik janrlarni tahlil qilish usullari

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH. BMINING UMUMIY TAVSIFI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya sohasida o‘zining umumiy yo‘lini belgilab oldi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan kelib chiqqan holda shuni alohida ta’kidlash joizki, yurtning kelajagi bo‘lmish yoshlarni ma’nan yetuk, barkamol shaxs etib tarbiyalashda o‘qituvchi, murabbiyning roli beqiyosdir.

Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama mukammal, barkamol inson sifatida kamol toptirish dolzarb masalaga aylandi. Respublikasiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: *“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”* degan edilar¹. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo‘lib kamol topishida adabiyot va san’atning, bu soha vakillarining roli beqiyosdir.

O‘qituvchi nafaqat o‘quvchiga bilim beradi, balki uni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida kamol topishga ham harakat qiladi. Bu borada adabiyot o‘qituvchisi zimmasiga yanada kattaroq mas’uliyatlar yuklanadi. Chunki adabiyot darsida o‘quvchi o‘zi uchun kerakli bilimlarni olishi bilan birga mustaqil fikr yurita oladigan, dolzarb muammolarga javob beradigan, hayotning har bir jabhasiga tanqidiy baho berib, mushohada qiladigan inson sifatida kamol topadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she’rlarini o‘rganishga muattan dars soatlari ajratilgan. Navoiyning kichik janrdagi she’rlarini o‘rganish o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘qituvchidan katta nazariy bilim va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Ta’lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she’rlarini o‘rganish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu masalaning BMIda ilk marta o‘rganilishi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. // Xalq so‘zi, 2016 yil 16 dekabr.

Mavzuning o‘rganilish tarixi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shoir shaxsiyati, hayotiy faoliyati, adabiy va ilmiy merosi ko‘pgina tadqiqotlarda o‘rganilgan. Navoiy zamonasidan to shu kungacha ulug‘ mutafakkir hayoti va ijodi xilma-xil darajada o‘rganilgan. Natijada navoiyshunoslik ilmi paydo bo‘ldi, rivojlandi va yuksak taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tarildi.

Navoiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy asosda o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligida XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlar taniqli o‘zbek ijodkori professor Abdurauf Fitratga qalamiga mansubdir. Uning *“Navoiyning forsiy shoirlig‘i ham uning forsiy devoni to‘g‘risida”*, *“Farhod va Shirin” dostoni to‘g‘risida*¹ nomli maqolalari bu boradagi jiddiy ilmiy tadqiqotlardandir.

1938 yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941yilda nishonlash haqida qaror qabul qilindi. Yubileyga tayyorgalik ishlari natijasida bir qator maqola, risola va monografiyalar yaratildi. Navoiyning bir qator asarlari, “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti, “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” nashr etildi. Navoiy asarlari bir qancha tillarga tarjima qilindi. Maqsud Shayxzoda «Genial shoir» nomli asarini yozdi. Adabiyotshunos V.Abdullaev Navoiyning Samarqanddagi faoliyati xususida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Ikkinchi jahon urushining boshlangani sababli yubiley kechiktiriladi. Mazkur tantana 1948-yilning may oyida katta tantanalar bilan nishonlanadi. SHu yili “Ulug‘ o‘zbek shoiri” (Oybek tahriri ostida) nomli maqolalar to‘plami o‘zbek va rus tillarida e‘lon qilinadi. Ye.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S. Ayniy singari olimlarning ilmiy risolalari chop etiladi. Ularda ulug‘ shoir ijodining muayyan qirralari munosib baholanadi. Navoiyshunoslik fani Alisher Navoiy ilmiy biografiyasini yaratishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi.

Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligini nishonlash tantanalari munosabati bilan XX asrning 60-yillarida Navoiyshunoslikda anchagina yutuqlarga erishildi.

¹ Bu haqda qarang: Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 2000

Adabiyotshunos P.Shamsiev tomonidan tayyorlangan “Xamsa”ning mukammal nashri (1960), H.Sulaymon tomonidan “Xazoyin ul-maoniy”ning akademik nashri (1959-1960) amalga oshirildi. Shoir aarlarining o‘n besh tomligi nashr etildi.

Bu davrda adabiyotshunoslar T.Jalolovning “Xamsa” talqinlari¹, A.Hayitmetovning “*Navoiyning ijodiy metodi masalalari*”², “*Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan*”, Yo.Ishoqovning “*Alisher Navoiyning ilk lirikasi*”³, N.Mallaevning “*Genial shoir va mutafakkir*”⁴ nomli tadqiqotlari, Shayxzodaning “*Ustodning san’atxonasida*”⁵, Oybekning “*Navoiy gulshani*”⁶ nomli maqolalar to‘plami va boshqa qator kitoblar yuzaga keldi.

XX asrning 70-yillarida navoiyshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Akademik A.Qayumov Navoiy “Xamsa”si tarqibiga kiradigan dostonlarni talqin qiladi. A.Hayitmetovning “*Tabarruk izlar izidan*”, “*Navoiy dahosi*”, “*Meros va ixlos*” kabi tadqiqotlar, A.Abdug‘afurovning “*Navoiy ijodida satira*” (1972), S.Erkinovning “*Navoiyning “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili*” (1971), N.Mallaevning “*Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti*” (1974), A.Rustamovning “*Navoiyning badiiy mahorati*” (1979) nomli monografik tadqiqotlari bunga misol bo‘la oladi.

Istiqloldan keyingi yillarda adabiyotimiz tarixi, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda yangicha qarashlar kuzatildi. Endilikda shoir ijodi Qur‘oni Karim, Hadisi Sharif singari muqaddas kitoblar, din va tasavvuf bilan bog‘liqlikda o‘rganilmoqdaki, bu bizga shoir ilgari surgan g‘oyalarning mazmun-mohiyatini to‘laroq anglash yetishimiz uchun asos bo‘lmoqda.

Shoirning 20 jilddan iborat “Mukammal asarlar to‘plami”⁷ (1987-2003) keyinroq 10 jildlik asarlari nashr etilishi natijasida Navoiy bitiklari yuzasidan tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari yanada kengaydi.

¹ Jalolov T. “Xamsa” talqinlari. – T.: 1962

² Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – T.: 1963

³ Ishoqov Yo. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. – T.: 1965

⁴ Mallaev N. Genial shoir va mutafakkir. – T.: 1968

⁵ Shayxzoda. Ustodning san’atxonasida. – T.: 1965-1966

⁶ Oybek. Navoiy gulshani. – T.: 1967

⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1987-2003

Adabiyotshunos I.Haqqulov birinchilardan bo‘lib, shoir ijodidagi ilohiy ishq talqinini kuzatadi va muayyan xulosalarini bayon etadi. Adabiyotshunos Majnun ishq sir-asrorlarini kuzatish orqali Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan ishq va u bilan bog‘liq tuyg‘u-kechinmalar haqida e‘tiborga molik fikr-mulohazalarni ilgari suradi¹.

Adabiyotshunos N.Komilov ham Navoiy lirikasiga oid e‘tiborga molik fikr-mulohazalarni ilgari suradi².

Akademik A.Qayumovning ko‘p jildlik “Asarlar” ining nashr etila boshlashi mamlakatimiz ilm-fani va ma‘naviyati sohasidagi muhim voqea bo‘ldi. Bugungi kungacha e‘lon qilingan mazkur nashr (jami 9 jild) ning 1-2-3-4 jildlari Navoiy ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Navoiy ijodi tasavvufning naqshbandiya ta‘limoti bilan bog‘liq jihatlari, shoir hayoti va adabiy faoliyatida alohida o‘rin tutgan mashhur siymolar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan³.

Keyingi yillarda Navoiy ijodiy merosi va asarlari tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

2000-yildan boshlab, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti olimlari tashabbusi bilan “*Navoiyga armug‘on*” to‘plami (2000-2010) nashr etilib kelindi. Bu to‘plamdan respublikamiz taniqli adabiyotshunos va tilshunos olimlarining Navoiyga bag‘ishlangan eng so‘nggi ilmiy kuzatishlari samarasi bo‘lgan maqolalar o‘rin oldi.

Adabiyotshunos T.Matyoqubovanning “*Alisher Navoiy hayoti va ijodi*”⁴ nomli nomli o‘quv qo‘llanmasi shoir hayoti va ijodini nofilologik fakul’tetlarda o‘qitishga oid maxsus kursga mo‘ljallangan. Unda Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi, ulug‘ mutafakkirning lirik, nasriy va ilmiy asarlari, “Xamsa” dostonlari tahlil etiladi. Shoir asarlarining yaratilish tarixi davr adabiy muhiti bilan bog‘liqlikda kuzatiladi.

¹ Haqqulov I. Tasavvuf va she‘riyat. – T.: Adabiyot va san‘at, 1991

² Komilov N. Tasavvuf. – T.: O‘zbekiston, 2008

³ Qayumov A. Asarlar.J.1. K.1. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2008; Qayumov A. Asarlar.J.1. K.2. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2008; Qayumov A. Asarlar.J.2. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2008; Qayumov A. Asarlar.J.3. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2009; Qayumov A. Asarlar.J.4. – T.: MUMTOZ SO‘Z. 2009.

⁴ Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T.: Fan va texnologiya, 2010

Taniqli matnshunos olim Shuhrat Sirojiddinovning 2011 yilda chop etilgan «Alisher Navoiy»¹ nomli monografiyasida haligacha to‘liq o‘rga-nilmagan ulug‘ adibning biobibliografiyasiga doir manbalar qiyosiy-tipologik, tesktologik tahlil etilgan. Shu bilan birga monografiyada Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati yoritilgan ilk manbalar xronogik tartibda o‘rganib chiqilib, ulardagi ma’lumotlarning asl holati tadqiq etilibgina qolinmay, manbalarni janriy xususiyatlariga ko‘ra tasnif etish va mavjud ma’lumotlar belgilari asosida Navoiy tarjimai holining asosiy jihatlari aniqlangan.

Badiiy asar tahlili doimo metodikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Pedagogika fanlari doktori Q.Yo‘ldoshevning “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari”² nomli monografiyasida adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Olim shu masala bilan bevosita bog‘liq holda badiiy asarni o‘rganish, uni tahlil qilish va baholash haqida ham muayyan fikrlarni ilgari suradi.

B.To‘xlievning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli darsligida ham badiiy asar tahliliga oid qimmatli mulohazalar ilgari surilgan³. Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldosh tomonidan nashr etilgan “Badiiy tahlil asoalari”⁴ kitobida badiiy tahlilning nazariy va amaliy masalalari yangicha qarashlar asosida o‘rganiladi.

Ko‘rinadiki, adabiyot darslarida badiiy tahlilning o‘rni masalasi muayyan darajada o‘rganilgan, ammo adabiyot darslarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash va tahlilga o‘rgatish masalasi nisbatan kam o‘rganilgan.

Shu sababli biz ushbu BMIda mazkur mavzuni o‘rganishga va muayyan umumlashmalarimizni ifodalashga harakat qildik. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi sohasida amalga oshirilgan ishlar BMIni yozishimizda nazariy asos vazifasini bajardi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari.BMIning asosiy maqsadi ta’lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she’rlarini o‘rganish usullarini o‘rgatishdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Navoiy lirikasini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish:

¹ Qarang: Sirojiddinov SH. Alisher Navoiy. – T.: 2011

² Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996

³ To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Yangi asr avlodi, 2006.

⁴ Qozoqboym Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.

- Navoiy mumtoz adabiyotini an'analarining davomchisi ekanligini tahlil etish;
- Maktab va akademik litseyda Navoiy ijodidagi kichik janrlarni o'rganish;
- Qit'a va ruboiylar badiiyatini ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'rgatish haqida fikr yuritish;
- Navoiy qit'a va ruboiylarini o'qitishning nazariy-metodik asoslarini belgilash;
- Shoir lirikasidagi kichik janrlarni tahlil qilish usullarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti. BMIning yozishda uzluksiz ta'lim tizimi uchun yaratilgan darslik va majmualardan o'rin olgan Navoiyning kichik janrdagi she'rlari obyekt vazifasini o'tadi.

BMIning metodologik asosini Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning ma'naviyat, adabiyot va san'atga oid qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, o'zbek navoiyshunoslari va metodist olimlaridan A.Hayitmetov, N.Komilov, I.Haqqulov, A.Zunnunov, B.To'xlijev, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, R.Niyozmetova va boshqalarning ilmiy-nazariy, metodik qarashlari ishimizni amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o'tadi.

Tadqiqotning metodi. Mavzuni yoritish jarayonida tadqiqotda qiyosiy-tipologik va tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanildi.

BMIning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotda ta'lim tizimida Navoiyning kichik janrdagi she'rlarini o'rganish usullari tadqiq etildi. Unda Navoiyning kichik janrdagi she'rlarining yetakchi tamoyillari tahlil etildi. O'quvchida badiiy asarga munosabat bildirish malakasini shakllantirish haqida muayyan mulohazalar ilgari surildi. Adabiyot darslarida o'quvchilarni she'riy asar tahliliga o'rgatish haqida fikr yuritildi. Navoiyning kichik janrdagi she'rlarini o'rganish orqali uning mumtoz adabiyotini an'analarining davomchisi ekanligini tahlil etildi.

Shoir qit'a va ruboiylari badiiyatini ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'rgatish haqida fikr yuritildi. Navoiy qit'a va ruboiylarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari ko'rsatildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu izlanishlarimiz nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Tadqiqot mobaynida olib borilgan kuzatishlar, BMIda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan oliy o'quv

yurtlarining talabalari, oʻrta maxsus taʼlim tizimi uchun maxsus kurslar va seminarlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi fanidan darslik, oʻquv va uslubiy qoʻllanmalar yaratish va toʻldirishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi. Ishimiz tarkibiy tuzilishiga koʻra kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I BOB. NAVOIY LIRIKASINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Navoiy – mumtoz adabiyotimiz an'alarining davomchisi

Alisher Navoiy ijodiy merosining kattagina qismini lirik she'rlar tashkil etadi.

Uning bizgacha turkiy va forsiy tildagi she'rlarini o'zida jamlagan 9 ta devoni yetib kelgan. Ularda shoirning 16 lirik janrga mansub bo'lgan she'rlari jamlangan.

Navoiy she'riyati o'zbek lirikasining eng go'zal namunalari bo'lib, unda turkiy va forsiy she'riyat an'analari mujassamlashgan. Betakror iste'dod egasi o'zining nafis va yuksak san'atkorlik bilan yozilgan she'rlari bilan turkiy adabiyotni olamga mashhur qildi. U o'ziga bo'lgan turkiy she'riyatni mahorat bilan takomillashtirdi. Shoir lirik merosining o'ziga xos qirralari quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Birinchidan, Alisher Navoiyning turkiy she'riyatga qo'shgan hissasi janrlar sonining kengaygani va mavjud janrlarning yanada takomillashganida kuzatiladi. Shoigacha bo'lgan turkiy she'riyatda g'azal, qit'a, masnaviy, ruboiy singari janrlardagina ijod qilingan. Shoir esa lirik turning 16 janrida mahorat bilan ijod qilgan va bu janrlarning go'zal namunalari yaratgan.

Ikkinchidan, shoirning o'zbek she'riyati rivojiga qo'shgan hissasi o'zbek she'riyatining mavzu doirasini kengaytirganida ko'rinadi. Shoigacha bo'lgan davrda ishqiy mavzu g'azalchilikning yetakchi mavzusi bo'lgan. Navoiy esa ishqiy mavzu bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta'limiy, axloqiy-didaktik, peyzaj tasviri kabilarni o'zbek she'riyatiga olib kiradi va bu mavzularda betakror she'rlar yaratadi.

Uchinidan, Navoiyning turkiy she'riyat taraqqiyotidagi xizmati g'azal kompozitsiyasi takomilida kuzatiladi. Shoigacha bo'lgan davrdagi turkiy she'riyatda parokanda g'azallar ko'p yaratilgan. Navoiy g'azallarni parokanda (g'azalning ko'p mavzuli bo'lishi) shaklda yaratilishidan qanoatlanmaydi. U g'azalning matla'sida ko'tarilgan masala maqta'gacha izchil yoritilishi, baytlar bir-birini to'ldirib, biri-ikkinchisiga bog'lanib borishi lozim deb hisoblagan. Navoiy

kompozitsion jihatdan yakpora, musalsal, voqeaband g'azallar yaratib, o'zbek g'azalchiligini yuksak taraqqiyot darajasiga ko'targan.

To'rtinchidan, shoir lirikasi obrazlar olamining rang-barangligi bilan ham e'tiborga molikdir. U kundalik turmushning turfa xil lavhalaridan, tabiat hodisalarigacha, mifologik tasavvurlar, tushunchalardan tortib, samoviy jismlargacha obrazli ifodalar yaratishda murojaat qiladi. Shoir san'atkorligi bilan yaratilgan bunday obrazlar lirik qahramon ruhiy olami, kechinmalarini yoritishda keng qo'llanilgan.

Beshinchidan, Shoir g'azallarining lirik qahramoni uning o'zidir. She'rlarida lirik qahramonning turfa xil kechinmalari, o'y-xayollari, orzu-niyatlari shoirona tasvirlanadi. Shoir she'riyatida qo'llaniladigan ma'shuqa, shoh, darvesh, shayx, zohid, orif, rind, soqiy, raqib singari qator timsollar yetakchi g'oyani teran badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, Navoiy she'riyati she'r tuzilishi jihatidan ham alohida o'rin tutadi. Shoir vazn, qofiya, radif va boshqalarda yuksak mahoratini namoyon etgan. U hazaj, rajaz, ramal, munsarih, muzori', mujtass, sari', hafif, mutaqorib, mutadorik va boshqa vaznlarda she'rlar yaratib, o'zbek she'riyati vaznlar turini kengaytirgan. Shoir odatdagi qofiya bilan bir qatorda zulqofiyatayn, ichki qofiya, tarse' singari qofiyalarni ham qo'llaydi. Radifning she'r ohangdorligini kuchaytirishga erishadi¹. rang-barang ko'rinishlari orqali

Navoiy lirikasida kichik janrdagi she'rlar ham alohida o'rin tutadi. Shulardan biri ruboiydir. Ruboiy - Sharq she'riyatining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, bu janrning yuzaga kelishi xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liqdir.

Bu shakl o'z nomlanishini arablardan olgan bo'lsa ham (ruboiy - arabcha to'rtlik demakdir), fors-tojik va o'zbek adabiyotida uning yuzaga kelishi milliy adabiy an'analar bilan mustahkam bog'langan. Fors-tojik yozma adabiyotida ruboiyning dastlabki namunalari Rudakiy va Shahidi Balxiylar qalamiga mansub

¹ Qarang: Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T. Fan va texnologiya, 2010. – B.43

bo'lsa, o'zbek yozma, adabiyotida haqiqiy ruboiyning bir necha namunasi Lutfiy devonida uchraydi.

Alisher Navoiy ruboiynavislikda ikki asosga - o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti va turkiy tildagi yozma adabiyot tajribalari hamda fors-tojik ruboiynavislarining boy tajribalariga suyandi, o'zbek tilida klassik ruboiylarning rang-barang namunalarini yaratdi.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar» devoniga 133 ta ruboiy kiritilgan. Shu devonning nasr bilan yozilgan debochasi tarkibida ham 30 ta ruboiy mavjud. Shuningdek, uning boshqa ilmiy, badiiy asarlari tarkibida ham ko'plab turkiy ruboiylar mavjud. Bunga shoirning «Devoni Foni»dagi va boshqa asarlari tarkibida uchraydigan yuzga yaqin forsiy ruboiylari va «Nazm ul-javohir» (270 ta) ruboiylarini ham ilova qilsak, Alisher Navoiyning mazkur janr taraqqiyotidagi o'rni yorqin namoyon bo'ladi.

Demak, Navoiy ruboiylari o'zbek adabiyoti tarixida hajm jihatdan ko'pligi bilan ham xarakterlanadi. Navoiy o'zbek tilida ko'plab ruboiylar yaratish bilan bu janrni yuqori bosqichga olib chiqdi, uni o'zbek she'ritining asosiy janrlaridan biri darajasiga ko'tardi.

Navoiyga qadar yaratilgan o'zbekcha ruboiylar, asosan, ishq mavzuida edi. Navoiy ruboiylari mavzusinning xilma-xilligi, mundarijasining chuqurligi, chuqur g'oyaviyligi bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Ularda hamd, na't, falsafiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mavzular tasvirlanadi. Ishq-muhabbat, adolat, vatanparvarlik, imon-e'tiqod, vafo, sadoqat, to'g'rilik, haqiqat, kelajakka umidvorlik g'oyalari yuksak badiiyat bilan aks ettiriladi. Masalan:

So'z durki nishon berur o'lukka jondin,

So'z durki berur jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Ushbu ruboiy misralarining to'rtalasi ham qofiyalangan bo'lib, qofiyalanish tartibiga ko'ra taronai ruboiydir. Unda shoir so'zni qadr-qimmatini yuksak sanab, uni "guhari sharif" deb ataydi. Inson tirikligining nishoni so'z ekanligini ta'kidlagan

shoir uni hayvondan farqlaydigan asosiy vosita bu soʻzlash qobiliyatiga ega ekanligida deb biladi. Shoir falsafiy umumlashmalarida tiriklikning qadriga yetish, soʻzga masʼuliyat gʻoyalari mujassamlashgan.

Navoiy ruboiylarining katta qismi umuman uning ijodida asosiy oʻrin tutgan masala – ijtimoiy-siyosiy masalalarga bagʻishlangan. Navoiy odil podshoh xaqidagi mulohazalarini ham bu janr imkoniyatlaridan foydalanib badiiy ifoda etgan. U jamiyatdagi yaramas va chirkin illatlarga, adolatsizlik va insofsizlikka, zulm va jaholatga nisbatan cheksiz nafratini ruboiylarida ixcham bayon qiladi. Shoir dunyoning oʻtkinchiligi, hayot qiyinchilik va mashaqqatlarga toʻla ekanligini ruboiylarida ixcham shaklda bayon etiladi:

Kim koʻrdi ekin jahonda ayo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda agar bir oʻlsa paydo xushluq,
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

Mazkur ruboiyda shoir yaxshilikning yoʻqligi, har bir kishi uni orzu qilgani holda shodilk va xursandchilik yuz yilda bir kelsa ham uning yonida yuz noxushliklar borligini aks ettiradi. Shoir yaxshilk va yomonlik yonma-yon yuradi, degan hayotiy tajribaga amal qilib, kishilarni ogohlikka chaqiradi. Shuningdek, zamondoshlarini mashaqqatlar oldida esankiramas-likka, sabru qanoatga undaydi.

Navoiyning ishqiy mavzudagi ruboiylarida ishq va u bilan bogʻliq kechinmalar shoirona talqin etiladi. Shoir oshiqning ishq yoʻlida chekkan iztiroblarini, kechinmalarini, qaygʻu-hasratini, uning maʼshuqaga boʻlgan cheksiz hurmati va extiromini ruboiylarida mahorat bilan yoritadi.

Koʻz birla qoshing yaxshi, qabogʻing yaxshi,
Yuz birla soʻzing yaxshi, dudogʻing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqogʻing yaxshi,
Bir-bir ne deyin boshdin ayogʻing yaxshi.

Ruboiy vasf xarakterida boʻlib, shoir maʼshuqani tasvirleydi. Bunda shoir yorning butun aʼzolarini sanab chiqadi. Yorning qoshi, qabogʻi, soʻzi, dudogʻi, yonogʻi, holi goʻzallikda tengsizligini keltiradi. Ruboiyning oxirida buni “Bir-bir ne

deyin boshdin ayog‘ing yaxshi” deya umumlashtiradi. She‘r qofiyalanish tartibiga ko‘ra taronai ruboiy (qofiyalanishi a-a-a-a) bo‘lib, undagi qofiyadosh so‘zlarqabog‘ing, dudog‘ing, saqog‘ing, ayog‘ingdir. Mazkur so‘zlar vositasida she‘rning ta‘sirchanligi, ohangdorligi kuchaytirilgan.

Shoirning ba‘zi ruboiylarida visoldan umidini uzgan oshiqning hijron azoblari tasvirlanadi. Bunda shoir falak gardishi bilan visoldan mosuvo bo‘lgan Oshiqning qotili hijron deb biladi. Ayriliq azoblari tufayli o‘lim holatiga yetgan oshiq yor ta‘nalari haddan oshib ketganini aytadi. Bunda shoir ayriliq azoblarini boshdan kechirayotgan Oshiqning tushkun kayfiyati, ruhiy tug‘yonlarini mubolog‘ali tarzda aks ettiradi.

To charx visoli ko‘yidin surdi meni,
Qatl aylagali hajrg‘a topshurdi meni.
Gar hajr o‘lum holig‘a yetkurdi meni,
Yor etgani ta‘na, lek o‘lturdi meni.

Navoiy ruboiylari, eng avvalo, badiiy asarlardir. Ularda muhim fikr, yuksak g‘oyalar rang-barang poetik vositalar, tasviriy ifodalar orqali bayon qilingan. Boshqa she‘riy janrlarda bo‘lganidek ruboiylarda ham ijodkorning o‘ziga xos uslubi, poetik mahorati ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Navoiy ruboiylarida to‘rtala misraning ham qofiyalanishi, radif qo‘llanilishi, butun bir ruboiyda tarse ishlatish, tamsil yaratish singari yangiliklar kuzatiladiki, bu shoirning yuksak mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotida eng ko‘p ruboiy yaratib, bu she‘r ko‘rinishini birinchi darajali (g‘azal, masnaviy kabi) janrlar qatoriga olib chikdi, uning mavzu doirasini kengaytirdi, falsafiy salmog‘ini oshirdi, ruboiyga hayotiy masalalarni kiritib, turmushga yanada yaqinlashtirdi.

Qit‘a (arabcha-qism, bo‘lak, parcha) mavzu doirasi va vazn imkoniyatlari chegaralanmagan, juft misralari o‘zaro qofiyalangan janrdir. Qit‘a matla‘siz g‘azalga o‘xshab qofiyalanadi, hajman ikki va undan ortiq baytlardan tarkib topadi. Ular qasida, g‘azal singari janrlardan biror parchani ajratib olish orqali yoki mustaqil holda yaratilishi mumkin. Qit‘a Navoiy lirikasida katta o‘rin tutgan

janrlardan biridir. O‘zbek she‘riyatida bu janrning ham badiiy jihatdan, ham mundarija nuqtai nazaridan rivoj topishi va keng qo‘llanishi bevosita Navoiy ijodiyoti bilan bog‘liqdir.

Fors-tojik adabiyotida keng o‘rin olgan qit‘a Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida juda oz qo‘llanilgan bo‘lib, uning ba‘zi bir namunalarini «Bang va Chog‘ir munozarasi» (2 ta o‘zbekcha), «Muhabbatnoma» (1 ta) tarkibida hamda Lutfiy devonida uchratamiz. Ularning bir qismi ishqiy mavzuda yozilgan. Falsafiy-axloqiy va ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgan qit‘alarni g‘oyaviy-badiiy sifatlari bilan shu janrning taraqqiyoti tarixida yangi va yuqori bosqich deb hisoblash mumkin.

Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida kam qo‘llanilgan bu janrning yuzlab klassik namunalarini yaratdi. Binobarin, «Xazoyin ul-maoniy»dagi qit‘alar soni (debochalardagi kirmaydi) 210 ta bo‘lib, «Chihil hadis» (40 ta) va boshqa asarlar tarkibidagi qit‘alarni ham nazarda tutsak, ularning soni uch yuzdan ortib ketadi.

Navoiy qit‘alarining asosiy fazilatlaridan biri mavzu doirasining keng va rang-barangligi, g‘oyaviy-fikriy jihatning chuqur va izchilligidir.

Navoiy qit‘alari ulug‘ shoirning muayyan vaziyatdagi kayfiyatini, chuqur falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-ilohiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini badiiy ifoda etadi. Har bir qit‘adan oldin nasriy sarlovhalar berilganki, bu qit‘alar mazmunining mukammalligini ta’minlagan. Mazkur sarlovhalar shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni kitobxonga tushunarli tarzda yetkazib berishga yordam beradi. Nasriy sarlovhalarning ayrimlari shoir tomonidan hikmatli so‘z darajasiga ko‘tarilgan, ba‘zilari shoir tarjimai holi bilan bevosita bog‘liq, ayrimlari esa payg‘ambarimiz hadislarini bilan bog‘liq g‘oyalarni she‘riy tarzda ifodalashga qaratilgan. Masalan, “Kamol kasbiga dalolatu nuqsonidin izhori malolat”, “Rostliq sifatiyu rostravlar karomati”, “O‘ziga bu mulkdin yetgan balolar toshi ozori, bosh olibo‘zga mulkka borurning izhori”, “Majozdin maqsadi haqiqat ekaniizhor qilmoq va suratdin g‘araz ma’ni ekonin iqror qilmoq” va boshqa nasriy sarlovhalar bunga misol bo‘la oladi.

Orzu qildim vafo ahlin ko‘ray deb - topmadim:

Xoh zo‘hid, xoh fosiq, xoh soyil, xoh shoh

Shoir “vafo ahli”ni butun umr izlaydi. Biroq kishilar qanday toifa egasi bo‘lishiga qaramasdan, ularda vafo yo‘qligini aytadi. Kishilar zohid bo‘ladimi, fosiq (yomon yo‘llapga yuruvchi) mi, xoh gado, xoh shoh bo‘lsin hech birida vafo yo‘qligini keltiradi. Ushbu o‘rinda zohid, fosiq, soyil, shoh so‘zlarini keltirish orqali tanosib san’ati yaratilgan.

Navoiy qit’alari g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk bo‘lib, ularda shoirning kundalik hayotdan olgan muhim taassurotlari, turmushning turli masalalari borasidagi fikr-mulohazalari, falsafiy mushohadalari o‘ziga xos shaklda haqqoniy ifodalangan.

Chun g‘araz so‘zdin erur ma’ni anga,
Noqil o‘lsa xoh xotun, xoh er.
So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim ne der.

Qit’a badiiyatini kuzatar ekanmiz. Bu shoirning mahoratini anglashimizga yordam beradi. She’rdagi noqil va so‘zchi bir ma’noda (noqil-umumiy ma’nodagi so‘zlovchi, so‘zchi- ayni paytda gapirayotgan kishi) kelgan.

Keyingi misralarda o‘zakdosh yoki aynan takrorlanayotgan so‘zlar zidlikni ifodalashga xizmat qilgan. Hol so‘zi o‘zaro omonimlik munosabatida: so‘zchi holi birikmasida hol so‘zi ko‘rinish, shakl ma’nosida, so‘z holi birikmasida esa so‘zning ma’nosi o‘rnida qo‘llanilgan. Boqmaslik kerak bo‘lgan so‘zchi, boqish kerak bo‘lgan narsa esa so‘z ekan, so‘z va so‘zchi o‘zakdosh leksemalarining kontekstual zidligi oydinlashadi. Boq-boqma, ko‘rma-ko‘r, kim-ne ham o‘zaro tazodiy juftliklardir. Qit’adagi so‘zchi-so‘z, holin-holini, boqma-boq, ko‘rma-ko‘r, kim(olmosh) – kim (bog‘lovchi), der-der so‘zlari takroridan takrir va ishtiyoq san’atlari yaratilgan. Shoirning mahorati shundaki, shakliyo‘xshashlikdan ta’kid uchun foydalangan, qarama-qarshi tushuncha va holatlar yonma-yon qo‘yilishi ma’noviy bo‘rttirishga xizmat qilgan. Bu tasvir va ifodalar orqali so‘zlovchi xoh xotin, xoh er bo‘lsa ham so‘zdan maqsad undagi ma’nodir. So‘zlovchining holiga boqma, so‘zning holiga boq, uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara, degan mazmun ifodalangan.

Tuyuq turkiy xalqlar adabiyoti uchun xos bo'lgan she'riy shakl bo'lib, Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida uning go'zal namunalari yaratilgan.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da bu haqda shunday yozadi: «Yana turk ulusi, bataxis chiratoy xalqi aro shoye' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqqim:

Yorab, ul shahdu shakar yo labmudur,

Yo magar shahdu shakar yolabmudur.

Foilotun foilotun foilon,

Jonima payvasta novak otqali,

G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur».

Navoiy tuyuq va uning xususiyatlari bilan ham jiddiy shug'ullangan hamda bu janr uchun xos bo'lgan yetakchi belgilar, uning tarqalish doirasi ni ham ko'rsatib berishga muvaffaq bo'lgan. Navoiy fikrlaridan shu anglashiladiki, tuyuq turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, to'ylarda, bazmlarda, yig'inlarda qo'shiq qilib aytiladigan vaznlarda yaratilar ekan, Tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan iborat bo'ladi. Tuyuq tajnisli qofiyaga asoslangan va albatta ramali musaddasi maqsur vaznida bitiladi. Yuqorida Navoiy keltirgan tuyuq "yolabmudur" tajnisi asosiga qurilgan. Unda shoir ma'shuqa go'zalligini ta'riflaydi. Bu so'z birinchi misrada labmikan, ikkinchi misrada yalaganmikan, to'rtinchi misrada yoylabdimikan ma'nolarida qo'llanilgan. Shoir yorning lablari ta'rifini keltirar ekan, uni labmikan, shakarmikan, asalmikan yoki yorim shakar, asal yalaganmikan, deya hayratlanadi. Keyingi misralarda ma'shuqaning qoshi tasvirlanadi. Bunda bu qoshmikan yoki u mening jonimga o'q otish uchun g'amza o'qlarini qoshlariga tizib yoylabmikan, deydi. Bunda shoir tajohilu orif vositasida oshiqning yorga munosabati mahorat bilan ifodalangan.

Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida tuyuqning birinchi na-zariyotchisigina bo'lib qolmay, bu janrda ham o'z iste'dodini sinab ko'rgan va o'z devonidan bu janrdagi she'rlarga alohida o'rin ajratgan san'atkordir. Ammo Navoiy devoniga faqat o'n uchta tuyuq kiritilgan bo'lib, qit'a va ruboiylarga nisbatan olganda, ozdir.

Biroq shoir tuyuqlari turkiy she'riyatning eng yuksak namunalari ekanligi bilan ahamiyatlidir. Navoiy tuyuqlari mahoratining yangi qirralarigina emas, ayni zamonda, har bir badiiy detaldan muhim fikrlarni bayon etish vositasi sifatida foydalanishga harakat qiluvchi san'atkorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Shoir qofiya uchun tajnisning turli ko'rinishlarini istifoda etar ekan, shu vositalarni quruq so'z o'yini uchun emas, balki o'zining chuqur kechinmalarini ifoda etish maqsadiga bo'ysundiradi.

Yog'di javrung o'qi hajring toshidek,
Qildi qon ko'nglum ichin ham toshidek.
Sochqali mohim ayog'ig'a sipehr,
Ko'z yoshimning la'lu durrin toshidek.

Ushbu tuyuqda oshiqning ayriliq tufayli chekkan iztiroblari haqida so'z yuritiladi. Ma'shuqaning jabr o'qlari shu qadar kuchli yog'ildiki, u ayriliq toshi singari qattiqdir va bu ko'nglimning ichi ham, tashqarisini ham birdek qon qildi. Sevgilimning oyog'iga sochilayotgan ko'z yoshim xuddi marvarid, dur toshidekdir. She'rdagi "toshidek" so'zi birinchi misrada tosh ma'nosida, ikkinchi misrada-tashqari, oxirgi misrada-dur toshi ma'nosida qo'llanilgan. Mazkur tajnis vositasida shoir oshiqning ishqda sobitligi, sabru qanoati, iztiroblarining cheksizligini shoirona tasvirlagan.

Fard arabcha yolg'iz degan ma'noni bildiradi, atama sifatida bir bayt ya'ni ikki misra she'rga nisbatan qo'llaniladi. Fardning ko'pligi mufradot deyilib, ular odatda turli munosabat bilan yuzaga keladi. Fard arab, fors-tojik va turkiy adabiyotda keng tarqalgan she'riy shakl bo'lib, u fikrni ixcham, lo'nda bayon qiladi, masnaviyga o'xshab qofiyalanadi. Navoiyning fardlari muayyan hayotiy vaziyatlar asosida yaratilgan xulosalar sifatida alohida e'tiborga molikdir. Uning "Faboyid ul-kibar" devonidan 86 ta fard o'rin olgan. Shoir fardlarida rang-barang masalalar qalamga olinib, ularda ruhiy-ma'naviy yetuklik, axloqiy poklik, ezgu xulq sodda va ixcham shaklda tasvirlanadi.

Masalan:

Yuqar yomonlig' angakim, kirar yomon el aro,

Ko‘mur aro ilik urg‘an qilur ilkini qaro.

Ushbu fard mohiyatiga “Yomonga yaqin yursang yarasi yuqar, qozonga yaqin yursang qorasi” maqolining mazmuni singdirilgan. Shoir yomon kishilar bilan hamroh bo‘lsang uning yomonligi yuqishi ko‘mirga qo‘l urib uni qora qilish bilan qiyoslamoda. Zero, yomonlik kishini badnom qilishi, uni uyatga qo‘yishi mumkinligiga urg‘u berilmoqda. Shoir kishilarni yomon illatlardan forig‘ bo‘lishga chaqirish bilan birga do‘st tanlashda adashmaslikka, el aro yuzi qora bo‘lib qolishdan ehtiyot bo‘lishga chaqirmoqda.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,

Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo‘q.

Shoir ushbu fardida tasavvuf ta‘limotining oqimlaridan biri bo‘lgan javonmardlik sulukining qoidalarini mahorat bilan ifodalagan. Javonmardlik namoyandalari muruvvat va futuvvat ahlidir. Navoiy o‘z asarlarida ularni axiy deb ham yuritadi. Demak, muruvvatli odam o‘zi yemay, borini birovga beradi, jo‘mard, mard ya‘ni futuvvatli odam esa ko‘p ish qiladi, birovlarga yaxshilik qiladi, lekin uni minnat qilmaydi.

Istasangkim, ko‘rmagaysen bevafolig‘, ey rafiq,

Qilma olam ahli birla oshnolig‘, ey rafiq.

Shoir lirik qahramoni nazarida bu dunyoda bevafolar kun-kundan ko‘payib bormoqda. Lirik qahramon olam aholidan bevafoliklarni ko‘p ko‘rgan, shuning uchun eng to‘g‘ri yo‘l kishilardan uzoqroq bo‘lishdir. Shoir bu fikrni nido san‘ati vositasida rafiqqa murojaat qilish orqali ifodalab, ta‘sirchan lirik lavha yaratgan.

Shoir fardlarida uning ko‘nglini o‘rtagan, tuyg‘ulariga ta‘sir etgan holatlar nozik ifodalanadi.

Ul pariykim, ani demishmen yor,

Odamilig‘din o‘zga barchasi bor.

Ba‘zan shoir ma‘shuqa go‘zalligini tasvirlar ekan, xalqona tasvir usullariga murojaat qiladi.

Belu og‘zidin, dedilarkim, afsonaye,

Boshladim filholkim, “Bir bor edi, bir yo‘q edi”.

Shoir yori go‘zallikda shu darajaki, uni ta’rifi bu hayotda yo‘q, faqat afsonalardagina uchrashi mumkin, Shuning uchun ham shoir xalqona tasvir usuliga murojaat qiladiki, bu uning go‘zallikda tengsizligini ta’sirchan tasvirlashga xizmat qilgan.

Umuman, shoirning rang-barang janrdagi she’rlari uning yuksak mahorat egasi ekanligi, mazkur janrlar takomilidagi xizmatlari beqiyosligini ko‘rsatadi.

Navoiy lirikasi mavzu yo‘nalishining rang-barangligi, g‘oyaviy mazmunining g‘oyatda boyligi bilan xarakterlanadi. Lirik janrning xilma-xil ko‘rinishlarini o‘zida mujassam etgan bu she’riyat ulug‘ san’atkorning butun hayoti davomida yuzaga kelgan bo‘lib, unda shoir hayoti va fikriy dunyosi bilan bog‘liq ko‘pgina masalalar o‘z in’ikosini topgan. Navoiy devonida biz, bir jihatdan, an’anaviy mavzularning o‘ziga xos talqini, yangi motivlar hamda poetik voqealar asosidagi yuksak rivojini ko‘rsak, ikkinchi tomondan, shoirning hayotga, o‘z zamonasiga bevosita munosabatidan yuzaga kelgan fikr va tuyg‘ularining guvohi bo‘lamiz.

Adabiyotshunoslikda Navoiy she’riyatini mavzu va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra turli xil tasniflar uchraydi. Jumladan navoiyshunos A.Hayitmetov shoir g‘azallarini oshiqona, rindona va orifona g‘azallar¹ tarzida tasniflaydi. Akademik A.Qayumov esa orifona va oshiqona she’rlarni alohida ajratib o‘rganadi. Shuningdek, olim Navoiy ijodida diniy mazmundagi she’rlar ham alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi va shoirning hamd va na’tlarini bu turkumdagi she’rlar namunasi sifatida tadqiq etadi². Tadqiqotchi K.Mullaxo‘jayeva esa Navoiy g‘azallarini mavzu va badiiy-uslubiy xususiyatlariga ko‘ra hamd va na’t g‘azallar, orifona g‘azallar, oshiqona g‘azallar, rindona g‘azallar tarzida turkumlarga ajratadi³.

Navoiy she’riyatining mavzu doirasi va g‘oyaviy yo‘nalishi nihoyatda keng. Unda ilohiyot, tabiat, jamiyat va inson va uning ruhiy olamining ko‘pgina jihatlari bilan bog‘liq savollarga javob olish mumkin.

¹ Bu haqda qarang: Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: O‘qituvchi, 1993, 136 b.

² Qayumov A. Asarlar. 3-jild. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2009.

³ Mullaxo‘jayeva K. Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san’atlar uyg‘unligi (“Badoe’ ul-bidoya”devoni asosida). Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2005

Muhimi shundaki, har bir mavzu va har bir janrda faylasuf shoirning o‘ziga xos shaxsiyati va mushohadasi, poetik mahorati ko‘zga tashlanib turadi.

Navoiy she‘riyatida ishq, vafo, visol, hijron, insof va adolat, odob, tavoze‘, himmat, saxovat, halollik, imon, e‘tiqod, sabr, qanoat singari insoniy tuyg‘ular yuksak darajada mahorat bilan tasvirlanadi. Shoir bu tuyg‘ular ifodasi orqali inson ruhiyatida kechadigan kechinmalarni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi.

Navoiy ishqning poklovchilik xususiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Ishq inson qalbini nafs va u bilan bog‘liq bo‘lgan nopok illatlardan tozalaydi, inson irodasini mustahkamlab, uni chinakam kamolot darajasiga olib chiqadi.

Shoir lirikasida odob-axloq masalasining talqini bevosita komil inson tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Noqis uldurkim, o‘zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.
O‘z kamolidin demas ahli kamol
Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.
Sen nuqson ichra komilsen, base,
Olim aytib o‘zni, johilsen base.

Shoir nuqson ichra komillik deganda nafsdan xalos bo‘lmagan o‘zlikni nazarda tutadi. U komillikni nafs hukmronligidan ozod bo‘lgan yangi bir ruhoniy “men”ga asoslanadi, deydi. Insonning imoni va vijdoni anashu “men” tasarrufiga o‘tsagina u komillikka yetib bora oladi.

Navoiy jamiyat kishilarini ruhan pok, ma‘naviy yetuk, komil va fozil bo‘lishlarini orzu qiladi. Bu jihatdan quyidagi qit‘a alohida e‘tiborga molikdir.

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Qit‘adagi “kamol” so‘zi komil inson, “et kasbkim”- shakllantirmoq, hosil qilmoq, “olam uyi”-biz yashab turgan moddiy dunyo, ikkinchi misradagi “farz” so‘zi islomga ko‘ra bajarilishi shart va zarur bo‘lgan amallardir. Bundan har bir

inson komillikni o'zida shakllantirishi, ruhini poklashi farz, degan mazmun anglashiladi. Uchinchi misradagi "notamom" so'zi qit'adagi "kamol kasb etmay" tushunchasiga to'g'ri keladi, "biaynih" esa xuddi, go'yoki degan ma'nolarni bildiradi. Demak, jahondan ruhiy poklanmay o'tish, xuddi hammomga kirib, nopok chiqishga o'xshaydi. Qit'adagi "olam uyi", "jahon", "hammom" so'zlari mazmunan bir-biriga yaqin tushunchani ifodalab, tanosub san'atini yuzaga keltirgan. Ya'ni olam uyi bo'lmish jahon bir hammom kabidirki, inson hayoti unga poklanish uchun berilgan muddatdir. "G'amnok", "nopok" so'zlari qofiyadosh bo'lib, ular qofiya bo'lishi bilan birga she'rning asosiy mazmunini ifodalaydi. Ya'ni kimki dunyodan nopok o'tsa, u dunyodan chiqishda g'amnok bo'ladi.

Alisher Navoiy lirikasining she'riyat tarixidagi o'rni va ahamiyatini belgilovchi muhim omillardan biri uning hayotga yaqinligi, davr qiyofasi hamda ijtimoiy ruhning muayyan darajada aks etganligidadir. Zotan, Navoiy lirikasi o'z mohiyati bilan o'zbek klassik lirikasi taraqqiyotining bir necha asrlik tarixida yuksak bir bosqichni tashkil etadi.

Navoiy hassos lirik shoir bo'lishi bilan birga yirik siyosiy arbob, olim va fozil inson edi. Shuning uchun ham adolat, insonparvarlik va xalqparvarlikni targ'ib etish uning she'rlaridagi asosiy masalalardan biri sanalgan. Mamlakat osoyishtaligi, hamjihatlik, do'stlik, birodarlik shoir uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. U kishilarni o'zaro nizolar, ixtiloflar, dushmanliklarni yo'q qilishga undaydi.

Mamlakat taraqqiyotida shohning roli katta ekanligini yaxshi bilgan Navoiy ijodida adolatli shoh masalasiga alohida e'tibor bilan qaraydi. U davlat hukmdorlarini adolatli bo'lishlarini orzu qiladi. Nodon va johil shohni el boshiga ko'pgina kulfatlar olib kelishini, yurtni vayron qilishini qattiq tanqid etadi. Mamlakat ravnaqi, el-yurt osoyishtaligi bevosita shohga bog'liqligini ko'pgina asarlarida badiiy talqin etadi. Qit'alarida ham adolatli shoh mavzusi alohida o'rin tutadi.

Jahon ganjig'a shoh erur ajdaho,
Ki, o'tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,

Maosh aylamak ajdaho komida.

Ushbu qit'ada yomon shohlar ajdahoga o'xshatilmoqda. Ajdaho ganjga qo'riqchilik qilganidek, shoh jahon ganjiga qo'riqchidir. U qahri kelganda xuddi ajdaho singari o't sochadi. Shohning oldida yashash xuddi ajdaho og'zida tirikchilik qilish bilan barobardir. U istagan paytda oldidagi kishini yutib yuborishi mumkin.

Quyoshdek shoh adolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutg'ay.
Agar zulm etsa aqshom zulmatidek,
Hamul dam tiyralik olamni tutg'ay.

Bunda shoirning falsafiy qarashlari adolat-zulm, yorug' va qorong'u so'zlarini bir-biriga zid qo'yish (tazod vositasida) orqali ifodalangan. Shoir shohning adolatini quyoshga o'xshatadi. Ya'ni adolat quyosh singari butun olamni yoritishi, zulmni esa qorong'u kecha zulmatiga o'xshatadiki, bu zulmat butun olamni egallashiga urg'u beradi.

Shoir mamlakatda farovonlikka erishmoq, osoyishtalik o'rnatmoq, el-ulusni baxtiyor ko'rmoq uchun nimalarga e'tibor bermog' lozimligini ko'rsatib beradi. Nafs, manmanlik, zulm, hirs, behuda intilishlarga barham bermog' yo'li bilangina elni shod, mamlakatni obod qilish mumkin deb hisoblaydi:

To hirsu havas xirmoni barbod o'lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas.
To zulmu sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Shoir nazdidi el qalbidagi hirsu havas xirmoni yelga sovurilmasa, nafs, kibru havo qasri barbod bo'lmasa, zulmu sitam joniga qattiq sitam berib, uni yo'qotmog' shart bo'lsagina el ko'ngli shod, mamlakat obod bo'ladi. Bu she'r faqatgina Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari ifodasi bo'libgina qolmay, undagi obrazli ifodalar, poetik g'oyaning yuksak san'atkorlik bilan tasvirlangani bilan ham alohida diqqatga molikdir.

Navoiy jamiyat kishilari haqida soʻz yuritar ekan, ularni yuksak fazilatlar egasi boʻlishlarini orzu qiladi. Quyidagi qitʻada shoir bu haqda shunday deydi:

Uch kishidin uch ish yomon koʻrinur,
Sanga arz aylay ahli dunyodin:
Shohdin tundligʻ, gʻanidin buxl,
Molgʻa maylu, hirs donodin.

Maʼlumki, jamiyat taraqqiyoti, mamlakat obodonligi, el-yurt osoyishtaligida uch kishining oʻrni alohida ajralib turadi. Bular: shoh, badavlad kishilar va dono insonlardir. Shoh oʻzining adolatli siyosati, badavlat kishi oʻzining sahovati, dono esa oqilona qarashlari, ezgu niyati bilan eʼtiborga molikdir. Agar ulardagi bu sifatlarga putur yetsa mamlakat tanazzulga yuz tutishi muqarrardir. Shoirning yuqoridagi baytlarida xuddi shu masalaga urgʻu berilgan. Shohdagi gʻazab, davlatmanddagi baxillik, qizgʻanchilik, donodagi mol dunyoga hirs qoʻyish singari illatlar dunyodagi engyomon ish sifatida baholanadi.

Davronidan, zamon ahlidan shikoyat motivlari shoir fardlarida aforistik tarzda ifodalangan.

Ablah ani bilki, olamdin baqo qilgʻay tamaʼ,
Ahmoq ulki, olam ahlidin vafo qilgʻay tamaʼ.

Shoir tasviricha, dunyodan mangulik, abadiylik tilagan kishi ablah, olam ahlidan vafo istagan kishi ahmoqdir. Zero, dunyo abadiy boʻlmaganidek, olam ahlida ham vafo yoʻqdir. Bunda hayotning oʻtkinchiligi, inson yashashi uchun berilgan muddatni ezgu ishlarga sarf etishi haqidagi umumlashmalar shoirona tasvirlangan.

Koʻrinadiki, bunday sheʼrlarida shoirning hayot, inson, davr haqidagi qarashlari uzoq kuzatish va mushohadalar natijasida hosil boʻlgan xulosalar tarzida berilgan. Bunday oʻrinlarda yuksak maʼnaviy poklik, axloqiy yetuklik ulugʻlanib, zamondoshlarini bu sifatlarning aksi boʻlgan nuqsonlardan holi boʻlishlari haqidagi baʼzi bir mulohazalari ham maʼlum darajada oʻz aksini topgan.

1.2. Maktab va akademik litseyda Navoiy ijodidagi kichik janrlarni o'rganish

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab adabiy ta'limni milliy o'zanlariga qaytarish masalasi milliy ta'lim tizimini yaratish, uzluksiz ta'limni isloh qilish kabi jiddiy muammolar yechimiga qaratilgan davlat qarorlari, hujjatlar va qonunlar asosida hal qilina boshlandi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni natijasida uzluksiz ta'limning yangi tizimi yuzaga keltirildi, har bir ta'lim bosqichini zarur o'quv va metodik adabiyotlar, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash masalasi davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Adabiyot o'qitish metodikasi fanining yangi davri – milliy mustaqillik sharoitidagi maqsad va vazifalari, obyekti, yechimtalab muammolari mohiyatan o'zgardi. Xususan, ijtimoiy-ma'naviy hayotga yangicha nazar bilan qarash, ma'naviy merosimizga hurmat bilan, milliy istiqlol g'oyasiga tayanib munosabatda bo'lish, adabiy hodisalarga ham, ijodkor yaratgan adabiy asarlarga ham sog'lom munosabatni qaror toptirish; ularni yangi asoslarga tayanib baholash; badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishda estetik tamoyillarga tayanish ustuvor yo'nalishni tashkil etdi. Istiqlol davrida ayni shu yo'nalishda o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan bir guruh o'zbek metodist olimlari qatorida yangilangan pedagogik tafakkur mazmun-mohiyatini, nazariy asoslarini, asosiy tamoyillarini taniqli olim Q.Yo'ldoshev ilmiy asarlarida chuqur yoritilgan. Uning 7-sinf uchun «O'zbek adabiyoti» darslik-majmuasi, «O'qituvchi kitobi» nomli metodik qo'llanmasi mazmun mohiyati jihatidan butunlay yangi yo'nalishdagi didaktik vositadir. Olimning «Yangilangan pedagogik tafakkur va adabiy ta'limning ilmiy-nazariy asoslari» nomli ilmiy-metodik risolasi respublikamiz adabiy ta'limini yangi mulohazalar, ilmiy dalillangan ilg'or qarashlar bilan boyitdi. Adabiy ta'limni yangilangan pedagogik tafakkur mohiyatiga yaqinlashtirdi va uning yangi yo'nalishdagi ravnaqiga muhim hissa qo'shdi.

Mamlakatimizda mustaqil fikrli, bilimli, ijodkor va yaratuvchi shaxsni shakllantirishga, uning ma'naviyatini yuksaltirishga, aqliy hamda ruhiy kamolotini

ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratildi. Zotan, davlat va jamiyatni izlanuvchan, yaratuvchan, tashabbuskor, tafakkuri yuksak shaxslargina rivojlantira olishi davlat qarorlari, hujjat va ko'rsatmalarida ham o'z aksini topdi. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi mulohazalarni ilgari surgan edilar: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar... Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini angelaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadiga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz.»¹

Darhaqiqat, mustaqillik davri adabiy ta'limining yetakchi xususiyatlarini o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, ijodkorning hayoti haqidagi ma'lumotlarni o'rgatish vositasida yoshlarda ham yaratuvchilik, bunyodkorlik xislatlarini tarkib toptirish, ularning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, ijodkor shaxsiga xos namunaviy sifatlar ta'sirida o'quvchilarning ilmga, san'at va adabiyotga mehrini, hurmatini o'stirish; muayyan ijodkor ruhiyatini his qilish vositasida o'quvchilarni o'zga odamlar qalbini anglashga o'rgatish, o'z g'alar dardini anglashga yo'llash kabilar tashkil etdi. Adabiy asar va uning yaratuvchisini o'quvchi o'z tuyg'ulari, fikr-mulohazalari orqali tanishi va anglashi lozimligi yangilangan pedagogik tafakkur tamoyiliga aylandi. Chunki ana shunday yo'l bilangina san'at asarlariga nisbatan o'quvchilarning nuqtai nazari, munosabati va muhabbatini shakllantirish mumkin.

Yangilangan pedagogik tafakkur tamoyillaridan yana biri ijodkorga yaratuvchi shaxs sifatida yondashish, ya'ni uning kimligi yoki qayerda tug'ilgani yo qaysi partiya a'zosi ekani emas, balki o'ziga xos badiiy tafakkurini, uslubi bilan mahoratini o'rgatib, so'z san'atkorining ijodkor shaxs sifatida badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rnini belgilashga, yaratgan asarlari – badiiy kashfiyotining umumadabiy jarayondagi qadr-qimmatini baholashga erishish tashkil etadi. «Badiiy asar – xoh u lirika, xoh nasr, xoh drama bo'lsin – yozuvchining ijod

¹ Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998. – B.33

mahsuli. Farzand ota-onasiga o'xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar tahlil, talqin qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi... Uni biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtai nazaridan yondashish deyiladi», - deb yozadi adabiyotshunos A.Rasulov¹. Ayni paytda har bir ijodkorning o'ziga xos badiiy olami tomon o'quvchini yetaklash, so'z sehrini tuydirish, go'zallik alomatlarini his qila oladigan, uni qadrlaydigan insonni voyaga yetkazish adabiy ta'limning bosh maqsad-muddaosi hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar orasida adabiyot inson ma'naviy qiyofasini tashkil etadigan ruhiy holat, tushuncha, tasavvur, kayfiyat, orzu-umid, mayl va qiziqishlarni yuzaga keltirishning beqiyos imkoniyatlariga egaligi tufayli o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishda yetakchi mavqeda turadi. U o'quvchilar ma'naviy dunyosini qaror toptirishning chegarasiz maydonidir. Bunga erishish uchun adabiyot o'qitish jarayonida o'rganiladigan badiiy asarning janri, tabiati, badiiy xususiyatlariga mos metod va usullar tanlanishi kerak bo'ladi².

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan. Beaho asalari, ular qa'riga nihon ma'nolar tufayli u hamon o'zbek adabiyotining tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi bo'lib kelmoqda. Buyuk so'z san'atkorning lirikasi cheksiz ummon bo'lsa, qo'llangan badiiy vositalar, so'z o'yinlari, betakror tashbehlar duru gavharlar kabidir. "Xamsa" kabi yirik yuksak badiiy, "Mahbub ul- qulub", "Munojot", "Vaqfiya", "Majolis un-nafois" kabi tarbiyaviy ahamiyatga molik axloqiy asarlar fikrimiz dalilidir.

Uzluksiz ta'lim tizimida Navoiyning ko'pgina asarlari qatori lirik merosini o'rganishga ham muayyan dars soatlari ajratilgan.

¹ Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. -T.: Fan, 2006. - B.75

² Saribaeva M. Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o'rganish. -Toshkent: Adib, 2014.- B.20

Navoiyning lirik merosi umumta'lim maktablarining 8-sinfi¹ va akademik litseyning 2-bosqichi²da o'rganiladi. Bunda shoir devonlari, lirikasidagi asosiy janrlar, badiiy mahorati kabi masalalar tahlilga tortiladi.

Umumta'lim maktablarining 8-sinfida shoirning g'azal va qit'alari o'rganiladi. Akademik litseyning 2-bosqichida esa shoirning g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, muxammas, tarjiband janriga mansub lirik sherlaridan namunalar o'qitiladi. Shu bosqich o'quvchilari uchun mo'ljallangan majmuada Navoiyning 40 ta g'azali, shuningdek, bir nechta ruboiy, qit'a, tuyuq, muxammas, tarjiband janriga mansub asarlari jamlangan.

Navoiy lirik merosi turkiy adabiyotimiz tarixidagi eng mukammal va betakror ijod namunalaridir. Ularni o'qib-o'rganish, ma'no-mohiyatini tushunishda bugungi kunda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda davr talabi bilan uzluksiz ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari kirib kelmoqda. Pedagogika fanlari nomzodi S.Adilovanning "O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyasi vositasida tashkil etish" (oliy ta'lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida)" mavzusidagi nomzodlik ishi³ kompyuter texnologiyasini til ta'limi jarayoniga olib kirishning nazariy asoslari atroflicha bayon etilgan qimmatli tadqiqot sanaladi.

Adabiyot darslarida ta'limning texnik vositalaridan, kompyuter texnologiyasidan foydalanish masalalari S.Nishonova, T.R.Niyazmetova va boshqa bir qator metodist olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

Ta'lim tizimida adabiyot darslari, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda adabiy materiallarni kengroq o'rganish imkonini beradiganda axborot texnologiyalaridan foydalanishga keng yo'lga ochilmoqda. Shoir asarlarining elektron variantlari xam kitobxonlar va o'quvchilarga havola qilinmoqda.

Elektron axborot ta'lim resursining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar:

¹ Olimov S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.98-142

² Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o'quvchilari uchun / To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141

³ Adilova S. A. U zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasidatashkil etish (oliy ta'lim muassasalarining rusiyta- bon gurueugarida): Ped. fan. nom.... diss. –T., 2004. 160 6.

1) Navoiy hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha ma'ruza matni. Bunda fanning kalendar-tematik rejasi asosida ma'ruza matni beriladi. Maruza matnida talaba ushbu fanni o'rganishi uchun zarur bo'lgan barcha mavzular qamrab olinadi. Unda har bir mavzu uchun tayanch so'z va iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

2) Media fayllar. Audio, video materiallar. Mazkur blok dars mavzusini yorituvchi .mp3 formatidagi audiorolik, .swf yoki .avi formatidagi videoroliklar. Navoiy g'azallarining ko'pchiligi mashhur hofizlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Ulardan dars jarayonida foydalanish o'quvchi ijodiy fikrlashini, estetik didini o'stiradi. Shuningdek, shoirning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari asosida ishlangan kinofilmlardan namunalar ko'rsatilishi mumkin.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning ko'pgina g'azallari mashhur hofizlar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. "Qaro ko'zum", "Bo'ldum sango", "Kelmadi", "Ey sabo...", "Oshiq o'ldum...", "Qoshi yosinmu deyin..." va boshqa ko'plab g'azallarining qo'shiqlari xalqimiz tomonidan sevib tinglanadi. Darsda shu qo'shiqlarning audio variantlaridan foydalanish mumkin. O'quvchilarga qo'shiqni eshittirib, shu asosda bir necha savollar bilan murojaat qilish mumkin. Masalan, shoirning "Qaro ko'zum" g'azali asosida ijro etilgan qo'shiqni tinglagach, quyidagicha savollar bilan o'quvchilarga murojaat qilish mumkin:

1. Ushbu qo'shiq qaysi mashhur hofizlar tomonidan kuylangan?
2. Qo'shiq matni bilan g'azal o'rtasida qanday farqli jihatlarni sezdingiz?
3. Qo'shiqni eshitganda sizda qanday tuyg'ular paydo bo'ldi?
4. Qo'shiq va g'azalning qaysi birini tez va oson tushunasiz?
5. Siz ham ushbu qo'shiqni ijro etishga harakat qilib ko'ring va o'z ijrongizni audio tasmadagi variant bilan qiyoslang.

Navoiyning ko'pgina lirik she'rlari qatori ruboiy va qit'alari ham mashhur suhondonlar tomonidan ifodaki o'qilgan. Ushbu she'rlarning audio variantlari eshittirilib, shu asosda o'quvshiga topshiriqlar berilsa maqsadga muvofiqdir.

4) Fanni to'ldiruvchi, o'rganiladigan kurs doirasidagi qo'shimcha ma'lumotlarni aks ettiruvchi ensiklopedik materiallar joylashtiriladi. Bunda shoir

asarlarining turli xil nashrlarining elektron variantlari tavsiya etiladi. Navoiy asarlarining 10 jildligi, 20 jildliklari o'quvchiga taqdim etiladi. Shuningdek, Navoiy asarlari bo'yicha yaratilgan "Qomusiy lug'at" tavsiya etiladi.

6) Fotogalereya, dars mavzusini to'ldiruvchi foto yoki fotokompozitsiyalar. Bunda shoirning turli davrlarga oid rasmlari o'z aksini topadi. Navoiyning turli davrlarda chizilgan rasmlari, kitoblariga ishlangan miniatyuralar namoyish etiladi.

7) Test. Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bo'yicha darslikda berilgan mavzular kesimida test WEB formatda yaratiladi. Mavzularni o'rganish tugashi bilan o'quvchilarda bilimlarni sinab ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Navoiy hayoti va ijodi haqida albom tayyorlash, ularni kompyuterga kiritish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu albomlarning yaxshi tomoni shundaki, ular illyustrativ materiallar bilan boyitilgan.

Davr va adabiy muhit haqidagi, Navoiyning tarjimai holiga oid ma'lumotlar yoshlar adabiy tafakkurining o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin o'qituvchi o'quvchiga elektron manbalarni o'qish uchun tavsiya etganda, ushbu manbaning kompyuter xotirasida yoki internet saytida bor-yo'qligini oldindan ko'rib, bilib olishi kerak.

Metodist olimi T.R.Niyazmetovanning "Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish" degan maqolasida¹ 7-sinfda Zulfiya hayoti va ijodiga doir videotasmalar, "Umr daftari" deb nomlangan ko'rsatuvdan yozib olingan lavhalarni o'quvchilar e'tiboriga havola etish xususida maslahatlar beradi. Shu singari Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda "Navoiyni anglash" ko'rsatuvidan yozib olingan lavhalarni o'quvchilarga tavsiya etish muhim ahamiyatga egalir.

Navoiy asarlarini o'quvchi tushuna olishi uchun kompyuterda Navoiy asarlari lug'atidan foydalanish ham katta ahamiyatga egadir. Chunki lug'atlarning elektron varianti o'quvchi ishini osonlashtiradi.

¹ Niyazmetova T.R. Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish // Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-kism. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. B. 6-10.

Avvalo, lirik asarlarni o'rganishda kompyuter va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi, o'quvchilarning ular bilan bemalol ishlay olishlari uchun imkoniyatni kengaytiradi. Ya'ni o'quvchi lirik asarlar bilan bog'liq muammolarni ekranda ko'rish orqali aniq tasavvurga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, kompyuter orqali o'quvchiga yetkazilayotgan Navoiy she'riy matnini zarurat bo'lganida, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim o'quvchilarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymonish kabi sifatning namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor-o'qituvchining o'zigagina xos bo'lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi. O'qituvchi Shoir she'rlarini ma'lum bir tizimga solib, o'quvchi uchun oson yo'llarini ishlab chiqadi. Bu esa o'quvchi tasavvurlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, Navoiy lirikasiga oid yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi Navoiy she'rlari va ularga oid lug'atlarni fleshkaga yozib olish va ulardan zarur o'rinlarda foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni, ham mablag'ni tejaydiki, yuzlab nusxalarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo'ladi.

Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga tadbiiq etish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarni qo'llash shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalarinnig pedagogik dasturiy vositalari hamda multimedia vositalarining yaratilishi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda AKTlarining multimedia vositalarida o'quv materiallarini obrazli ko'rinishda ifodalash imkoniyati mavjud. Ma'lumotlarning matn ko'rinishida emas, balki obrazlar ko'rinishida taqdim etilishi bilim olish va fikrlashga ijobiy ta'sir qiladi. Obrazlar ko'rinishidagi o'quv materiallari matn

ko‘rinishidagiga nisbatan o‘quvchi diqqatini tez jalb etishi bilan birga oson o‘zlashtirishga ko‘proq yordam beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari an’anaviy o‘qitish texnologiyasidan inson intellekti rivojlanishining yangi shoxobchasiga mos keladigan obrazli ko‘rinishda ma’lumotlarni taqdim etishi, muloqot tillari bilan boq‘liq muammolarni yechishga hamda jahondagi kommunikatsion jarayonlarning rivojlanishiga olib kelishi bilan ham farqlanishi mumkin.

O‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish vositasida o‘quvchilarning bilish jarayonga, jumladan, o‘quv materiallarini qabul qilish, ma’nosini anglash, esda saqlash va takrorlash kabi jihatlarga ma’lum darajada ta’sir etish mumkin. Shuningdek, bu metodika o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini orttirishi bilan birga o‘quv materialini ko‘p kuch sarf qilmasdan o‘zlashtirishlariga erishtiradi. Buni an’anaviy o‘qitish metodikasi bilan taqqoslaganda yaqqol ko‘rish mumkin.


An’anaviy o‘qitish metodikasida o‘quv materiallari matn va formulalar ko‘rinishida berilib, uni namoyish qilish imkoniyati deyarli mavjud emas. Bunday ko‘rinishda berilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish asosan o‘quvchi tomonidan ketma-ket ravishda qabul qilinadi, shu sababli ularni esda qoldirish va o‘zlashtirish jarayoni sust kechadi.

O‘quv materiallarini obrazli ko‘rinishda taqdim etishda esa har xil ko‘rinishdagi ranglar, harakat, ovoz kabi vositalar o‘quvchilarning o‘quv materiallarini qabul qilish qobiliyatini oshirishi bilan birga ularning berilayotgan materiallarini tahlil qilish, taqqoslash hamda abstraktsiyalash kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi. Endilikda o‘qitishning bu jarayonini multimedialarni elektron nusxa ko‘rinishida chop etishni taqozo etmoqda.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish kerakki, axborot uzatishning bu usuli tufayli buyuk davlat arbobi, shoir va mutaffakir Alisher Navoiyning ijodi hozirgi kunda dunyo miqyosida, jumladan, AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi yirik ilmiy markazlarda katta e’tibor bilan o‘rganilmoqda. Bu esa yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

Shoirning gʻazallari, sahnalashtirilgan va filmi ishlangan asarlarining imitatsion modelini yaratib, asarlar mazmunini ular orqali ochib berish yaxshi samara beradi.

Navoiy lirikasi, xususan, kichik janrdagi asarlarida xilma-xil timsollar qoʻllanilib, ular orqali oshiq va maʼshuqaning turfa xil kechinmalari sanʼatkorona tasvirlanadi. Buni oʻquvchilarga oʻrgatishda slaydlar, jadvallar muhim oʻrin tutadi.



№	Timsol nomi	Ramziylik xususiyati
1	may, boda	ilohiy nur, neʼmat
2	Soqiy	a) ilohiyotning oʻzi; b) hazrati paygʻambar; v) pir; g) goʻzal maʼshuqa yoki maʼshuq
3	qadah, sogʻar jom	pirning qalbi, ilohiyot olami
4	gul	oshiq koʻnglining mahbub ishtiyoqida yalligʻlanishi
5	bulbul	oshiqlik belgisi, ammo zohiriy goʻzallikka oshiqlik belgisi
6	parvona	ilohiy goʻzallik k a oshiqlik va fano timsoli

7	sham'	Ilohiyot manbai
8	soch	Ilohiyot tajallisi (jilosi)
9	Qosh	ilohiyot olami bilan moddiy olam chegarasi.
10	og'iz	pirning purma'no so'zi.

Bunday jadval va slaydlarning ekranda namoyon bo'lishi obrazlar nomini o'quvchi xotirasida saqlanib qolishini osonlashtiradi, obraz mohiyatini tuShunish imkonini kengaytiradi.

Xullas, o'quvchi va talabalarga kompyuter va axborot texnologiyalari asosida zarur bilimlarni yetkazish ularning bu bilimlarini o'zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Ammo bugungi kunda ta'lim maskanlari AKT vositalari bilan yetarli darajada jihozlanmaganligi sababli ko'pincha ulardan o'rinli foydalanish imkoniga ega emasmiz. Bu esa mavjud audio, video va multimedia vositalarni fleshkadagina qolib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'ylaymizki, bu muammolar yaqin yillarda bartaraf etiladi. Bu esa bizga adabiy ta'lim sifatini yanada yaxshilash uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

II bob. Qit'a va ruboiylar badiiyatini ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'rgatish.

2.1. Navoiy qit'alarini o'qitishning nazariy-metodik asoslari

Lirik turning ko'pgina janrlari qatori qit'a ham adabiyot darslarida faol o'rganiladigan janr bo'lib, keyingi yillarda amaliyotda qo'llangan dasturlarga ko'ra 8-sinf va akademik litsey darsliklariga kiritilgan. Bu bejiz emas, albatta. Mumtoz she'riyatda shoirlar tuyuqdan ko'ra ham qit'ada barakali ijod qilishgan. Navoiy ijodida son va salmoq jihatidan shoir qalam tebratgan o'n olti janr ichida qit'a uchinchi o'rinda turadi.

“Xazoyin ul-maoniy”ning o‘zida 210 ta qit’a bor. Yana boshqa to‘plamlariga ham bu janrning talay namunalari kiritilgan. Qit’a o‘zining aniq hayotiyliigi, kundalik turmushga yaqinligi bilan lirik turning boshqa janrlaridan ajralib turadi. “Qit’a turli-tuman hayotiy masalalar, kundalik turmush bilan bog‘liq ma’nomlarni tasvirlashga imkon beradigan janr. SHuning uchun u arab, fors, turkiy adabiyotda ham qasida va g‘azaldan farqli o‘laroq an’anaviy talab va poetik qonuniyatlardan ozod bo‘lib, qit’a tilidagi fazilatlar g‘azal tiliga nisbatan silliqqlanmagan xalqning og‘zaki nutqiga favqulodda yaqin”¹. Ko‘pincha didaktik, ijtimoiy mavzularida yoziladigan bu janr adabiy ta’limda yosh avlodni yuksak ma’rifatli qilib tarbiyalashda, ularda sog‘lom ijtimoiy-siyosiy qarashlarni hamda falsafiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda beqiyos amaliy ahamiyatga ega.

O‘qituvchi ilmiy adabiyotlarda hamda darsliklarda berib kelinayotgan nazariy ma’lumotlarni yaxshi bilishi va janr namunalarni o‘rganish jarayonida ularni inobatga olishi, o‘quvchilarga singdirishi lozim. O‘qitish jarayonida qit’a haqida tahlilda asqotadigan ilmiy-nazariy qarashlardan xabardorlik juda muhimdir.

Qit’a (ko‘pligi muqattaot) arabcha qism, bo‘lak ma’nomlarini anglatadi. Toq misralari ochiq qolib, juft misralari qofiyalanadi: a-b-v-b-g-b... Shu jihatdan shaklan matla’siz g‘azalga o‘xshaydi. Eng kichik hajmi ikki bayt (to‘rt misra). Ba’zi adabiyotlarda ko‘pi bilan o‘n ikki baytgacha bo‘lishi aytilgan. O‘zbek adabiyotida yaratilgan qit’alarning aksariyati ikki baytli, uch, to‘rt baytlilari ham bor, lekin undan ortig‘i kam uchraydi.

Qit’alar yaratilishiga hamda qo‘llanishiga ko‘ra uch xil bo‘ladi²: a) shoirlar tomonidan mustaqil asar sifatida yaratiladi (darsliklarda shoirlar lirik asarlari sirasida “Qit’alar” sarlavhasi ostida shunday qit’alar beriladi); b) g‘azal, qasida, taje’band kabi boshqa janrdagi she’rlar tarkibidan ajratib olinib, muayyan bir vaziyatda fikrni asoslash, rad etish, ma’qullash kabi maqsadlarda qo‘llaniladi (hozirgacha darsliklarga bu xil qit’alar kiritilmagan); v) ba’zan nasriy asarlardagi biror mavzu-masalani yakunlash, xulosalash uchun keltiriladi. Bunda ham ikki holat

¹ Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. -T.: “Cho’lpon”, 1991. 4-5-betlar.

² Ahmedov S. va boshqalarning 6-sinf darsligida (-T.: “Ma’naviyat”, 2005) va boshqa ilmiy adabiyotlarda ikki xil bo‘lishi aytiladi.

kuzatiladi: birinchisi, muallif shu nasriy asarga “qissadan hissa” chiqarish uchun o‘zi uning mazmuniga mos qit’a yozib kiritadi, ikkinchisi, o‘zining yoki boshqa ijodkorlar qit’asidan yoxud asarlaridan parcha olib, xulosalash uchun foydalanadi Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” hamda Sa’diyning Ogahiy tarjimasidagi “Guliston” asarlari hikoyatlariga ilova qilingan qit’alar).

Odatda qit’alarga taxallus qo‘yish shart emas, lekin shoir xohlasa qo‘llashi ham mumkin. Masalan, ushbu qit’ada taxallus qo‘llangan:

Ul sarvning haramig‘a yetsang, ey sabo,
Bergil bu hajr xastasidin yod ko‘ngliga.
Rahm aylabon sog‘inmadi Bobirni, bor umid
Solgay xudoy rahmni fo‘lod ko‘ngliga¹.

Lekin hozirgacha darsliklarga taxallusli qit’a kiritilmagan. O‘qituvchi buni darsda mazkur she’r kabi biror qit’ani keltirish bilan tushuntirib ketmog‘i kerak.

Barcha mumtoz janrlarda bo‘lgani kabi qit’alarda ham sarlavha bo‘lmaydi. Navoiy esa “Xazoyin ul-maoniy”dagi qit’alari manbasi, yozilish sababi, mavzusini yoritib beruvchi jummalarga teng izohli sarlavha qo‘ygan. Shoirning shunday qit’alari 8-sinf darsliklariga kiritilgan edi. Bu sarlavhalar shoir qit’alarini tushunishga, adabiy ta’limda ularni tarbiyalanuvchilarga tushuntirishda o‘ziga xos kalit vazifasini o‘taydi.

Qit’aning mavzu doirasi keng, xilma-xil bo‘ladi. Asosan diniy-tasavufiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, odob-axloq mavzular qalamga olinadi. Boshqa mumtoz she’riyat janrlarida ishq yetakchi mavzu bo‘lsa, qit’alarda muhabbat kechinmalari kamdan-kam yoritiladi. Masalan, Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”sidagi 210 qit’adan birortasi ham ishqiy mavzuda emasligini kuzatdik. Bobur qit’alarining 19 tasidan beshtasigina shu mavzuda, Ogahiyda esa bu janrda muhabbat kechinmalari ifodalangan she’r yo‘qligi ma’lum bo‘ldi. Lekin Lutfiyning “Sensan sevarim” to‘plamini² varaqlagan o‘quvchi butunlay boshqa manzaraga duch keladi. Kitobdagi “Qit’alar” sarlavhasi ostida berilgan to‘qqiz she’r muhabbat mavzusida. Kitobxon

¹ Bobir she’riyatidan. – T.: 1993, 115-bet.

² Lutfiy. Sensan, sevarim. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 1987. 351-352-betlar.

bundan “Lutfiy faqat ishqiy mavzuda qit’alar yozgan ekanda” degan xulosaga keladi. Aslida unday emas. Sinchiklab tekshirilsa, bu she’rlar qit’a emas, balki tuyuq ekanligi oydinlashadi. Bunday deyishimizga quyidagicha asoslarimiz bor.

Ma’lumotga ko‘ra misralari tajnis bilan qofiyalanishiga ko‘ra tuyuq to‘rt turli bo‘ladi:

1. Ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq.
2. Uch misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq.
3. To‘rt misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq.
4. Radifi tajnis bo‘lgan tuyuq.

Lutfiyning biz so‘z yuritayotgan she’rlari birinchi to‘rtlikni istisno qilganda barchasi ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq namunasidir. Ikkitasini misol tariqasida keltiramiz:

Furqatingdin bo‘lmisham zoru zaif,
Tengri uchun mundin ortiq qilma zor.
Chun mening qonimni to‘ktung hajr ila,
O‘z eshiging tegrasinda qil mozor.

She’rda sintaktik birliklar – so‘z birikmalari (qilma zor – qil mozor) shakldoshligi tajnisni yuzaga keltirgan.

Ey qaroqchi dilbar, o‘yla bil,
Jon ayoman sen kibi jononadin.
Husnu lufu suratu ma’ni bila
Tug‘magay sentek yana jon onadin.

Bu yerda leksik va sintaktik birliklar – so‘z va so‘z birikmasi (jononadin – jon onadin) o‘rtasida omonimlik bor. Ikkila misolda ham ikkinchi va to‘rtinchi misralardagi tajnisli qofiya she’rning tuyuq sifatida shakllanishiga asos bo‘lgan. To‘plamda qit’a sifatida berilgan sakkiz she’r shunday ko‘rinishda. Demak, ular yuqorida zikr qilingan birinchi turga kiradigan tuyuqlardir. Ikkinchi asos shuki, bu she’rlar tuyuq vaznida – ramali musaddasi mahzuf o‘lchovida. Birortasi ham boshqa vaznda yozilmagan. Uchinchi asos esa ularning barchasi tuyuqlarga xos bo‘lgan ishqiy mavzuda bitilganidir. To‘plamga tartib berganlarni, bizningcha, mazkur

toʻrtliklarning qitʼaga oʻxshab, a-b-v-b tarzida qofiyalangani adashtirgan boʻlsa ehtimol. Maktab va oʻrta maxsus taʼlimi muassasalari uchun tuzilgan darslik-majmualarga mazkur tuyuqlar qitʼa sifatida kiritilgan¹. Ushbu xatolikni keyingi tuzilajak darsliklarda tuzatish kerak boʻladi.

Qitʼalarni adabiyot darslarida oʻrganish, bizningcha, quyidagi tarzda boʻlishi kerak.

1. Qitʼa ifodali oʻqib eshittiriladi. Darsliklarga kiritilgan bu janr namunalari didaktik (Navoiy, Ogahiy) hamda biografik (Bobur) xarakterda boʻlgani bois oʻqishda mazmunga mos ravishda bosiq taʼkid ohangi ustuvor boʻlishi kerak. Mazmunga koʻra sheʼrdagi ahamiyatli soʻzlarga mantiqiy urgʻu bergan holda oʻqish maqsadga muvofiq.

2. Yuqorida koʻrib oʻtganimiz janrlar kabi matnning leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlari ustida ishlanadi.

3. Qitʼa maʼnosi misrama-misra yoki qoʻshmisralar shaklida ketma-ket oʻzlashtirilib, sheʼrdagi mazmun yaxlit tarzda oydinlashtiriladi, shoir bildirayotgan fikr, ilgari surgan gʻoya aniqlanadi.

4. Sheʼr badiiyati, shoirning mahorati tahlil qilinadi. Buni qitʼa maʼnosini oʻzlashtirish jarayonida ham yoki undan keyin alohida tarzda ham qilish mumkin.

Albatta tahlil qatʼiy shu ketma-ketlikda boʻlishi shart emas, ular aralash, uygʻunlashgan holda ham boʻlishi mumkin. Ushbu bosqichlarni bir qitʼa misolida koʻrib oʻtamiz.

Chun gʻaraz soʻz din erur maʼni anga/,

Noqil oʻlsa xoh xotun/, xoh er.

Soʻzchi holin boqma/, boq soʻz holini/,

Koʻrma/ kim der ani/, koʻrgilkim ne der.

Misralarga qoʻyilgan / belgi rukn chegarasini bildirmaydi, balki ifodali oʻqishda ohang koʻtarilishi hamda toʻxtalish kerak boʻlgan oʻrinlar koʻrsatilgan. SHU

¹ Komilov N., Toʻxliyev B. Oʻzbek adabiyoti.-T.: "Oʻqituvchi", 1993. 234-bet; Qosimov B., Toʻxliyev B., Yoʻldoshev Q. Adabiyot. Majmua. 10-sinf darsligi., 174-bet. Toʻxliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. Akademik litseylarning 1-bosqichi uchun. T.: "Choʻlpon", 2007. 203-bet.

belgidan keyingi soʻz ham aynan shu koʻtarilgan ohang bilan aytila boshlanadi va asta-sekin tushadi. Shunda mazmuni boʻrtirishga xizmat qiladigan *xoh xotun, xoh er; boqma, boq; koʻrma kim, koʻrgilkim* juftliklariga ohang bilan mantiqiy urgʻu berishga muvaffaq boʻlinadi.

Ifodali oʻqilgach, notanish soʻzlarga lugʻat beriladi: gʻaraz – maqsad; noqil – soʻzlovchi; soʻzchi – soʻzlovchi. Oʻqituvchi birinchi misrani sintaktik tahlil qilib, uni inversiyadan chiqarish bilan gap boʻlaklarini odatdagi tartibga keltirish va bu jumlada qanday fikr bildirilganligini aniqlash vazifasini oʻquvchilarga yuklaydi. Bolalar qiyinchiliksiz undan maʼno uqadilar: *soʻzdan (yaʼni bildirilayotgan fikrdan) maqsad maʼni erur*. Ikkinchi misra: *soʻzlovchi xoh xotin, xoh er boʻlsa*. Misralar shu tarzda ketma-ket qoʻyilsa, toʻsiqsiz ergash gapli qoʻshma gap qismlari boʻlmish bu sodda gaplar odatdagi tartibda emasligi uchun uning maʼnosi u qadar oʻquvchi uchun tushunarli boʻlmaydi. Xuddi gʻazal tahlilida koʻrganimizdek, avval ikkinchi misra (ergash gap)ni, keyin birinchi misra (bosh gap)ni qoʻyib, qoʻshma gap qismlarini odatdagi tartibda shakllantiramiz: *soʻzlovchi xoh xotin, xoh er boʻlsa (ham), soʻzdan (yaʼni bildirilayotgan fikrdan) maqsad* undagi maʼnidir. Endi ifoda soddalashib, oʻquvchilarga tushunarli boʻlib qoladi.

Uchinchi misrada “hol” soʻzi bitta kelishikda – “holin”da qisqargan, “holini” (toʻliq) belgili tushum kelishigida takror kelgan boʻlsa-da, bu qoʻshimchalar joʻnalish kelishigining uslubiy varianti boʻlib kelmoqda. Yaʼni, *soʻzlovchining holiga boqma, soʻzining holiga boq*.

Toʻrtinchi misra bogʻlovchisiz qoʻshma gapdir. Undagi ikki sodda gapning kesimlari (koʻrma va koʻrgil) inversiya tufayli gapning boshida kelmoqda. Inversiyadan chiqarsak, quyidagi shakl yuzaga keladi: *uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara*.

Toʻrtala misradan chiqarilgan maʼno jamlanadi va bir oʻquvchi ularni oʻz tilidan yaxlit ifodalab beradi: *soʻzlovchi xoh xotin, xoh er boʻlsa (ham), soʻzdan (yaʼni bildirilayotgan fikrdan) maqsad undagi maʼnidir. Soʻzlovchining holiga boqma, soʻzining holiga boq Uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara*.

Qit'a badiiyati tahlili fikrni yanada teran idrok etishga, shoir mahoratini his etishga yo'l ochadi. She'rdagi *noqil* va *so'zchi* bir ma'noda kelgan. Aynan bir so'zni takrorlab, she'rga nuqs tushirmaslik uchun biri arabcha, biri sof o'zbekcha ushbu sinonimlarni qo'llab shoir qaytariqdan qochgan hamda ularni misralar boshida keltirish orqali ikki xil maqsadda qo'llanganini ta'kidlagan: *noqil* umumiy ma'nodagi so'zlovchi bo'lsa, *so'zchi* ayni paytda gapirayotgan kishini nazarda tutadi.

Navbatdagi ikki misra butunlay qaytariqlardan iboratday ko'rinadi. Aslida esa buning teskarisi. Ularda o'zakdosh yoki aynan takrorlanayotgan so'zlar zidlikni ifodalashga xizmat qilmoqda. Hol so'zi bir shakl (kelishik)da, bir misrada kelgan, lekin bu o'rinda ular omonimlik munosabatida: *so'zchi holi* birikmasidagi *hol* "ko'rinish", "shakl" ma'nosida (so'zlovchining ko'rinishi, kimligi), *so'z holi* birikmasida esa "ma'nosi" o'rnida qo'llangan. Boqmaslik kerak bo'lgani *so'zchi*, boqish kerak bo'lgan narsa *so'z* ekan, o'zakdosh so'zchi va so'z leksemalarining kontekstual zidligi oydinlashadi. O'zaro bir fe'lning bo'lishsiz va bo'lishli shakllari bo'lmish *boqma – boq* so'zlari ham aynan shu munosabatdaligi ko'rinib turibdi. To'rtinchi misradagi "ko'rma – ko'r", "kim – ne" ham o'zaro tazodiy juftliklardir. Keyingi ikki misrada lug'aviy va grammatik shakllar ikki martadan aynan yoki qo'shimcha qo'shish bilan takrorlangan (takrir va ishtiyoq san'atlari): *so'zchi – so'z*; *holin – holini*; *boqma – boq*; *ko'rma – ko'r*; *kim (olmosh) – kim (bog'lovchi-yuklama)*; *der - der*. Navoiyining yuksak mahorati shundaki, shakliy o'xshashlikdan ta'kid uchun foydalangan, ma'nolardagi zidlikdan umumlashma xulosa chiqargan. Qarama-qarshi tushuncha va holatlarining yonma-yon qo'yilishi ularning birbirlarini ma'noviy bo'rttirishiga xizmat qilgan.


Tahlil o'qituvchi tomondangina olib borilmasdan, yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar, muammoli savollar qo'yib, mazkur yechimlarga kelishda o'quvchilarning o'zini qatnashtirmoq darsning yuksak samarasi belgisidir.

Qit'alar ma'lum bir voqea munosabati bilan yaratilishi mumkin. Shu jihatdan u shoirning yondaftaridagi qaydlarga ham o'xshab ketadi. Agar she'r yozilishiga turtki bo'lgan voqea biror manba orqali yetib kelgan bo'lsa, o'qituvchi darsda undan

albatta foydalanishi kerak. Boburning 9-sinf darsliklarida berilayotgan “Ey, alarkim, bu Hind kishvaridin” misrasi bilan boshlanuvchi qit’asi yozilishi tarixi “Boburnoma”da bayon etilgan. SHu qit’a o’rganiladigan mashg’ulotga o’qituvchi “Boburnoma”ni olib kirishi va qit’aga tegishli o’rinlarni asarning o’zidan to’liq o’qib berishi maqsadga muvofiq. Bunda, bir tomondan, o’quvchilar qit’aning kundalik voqealarga nisbatan hozirjavob janr ekanligini his etadilar, ikkinchidan, Boburni shaxs va ijodkor sifatida yana bir bor kashf etadilar.

2.2. Shoir lirikasidagi kichik janrlarni tahlil qilish usullari

Ruboiy va tuyuqlarni o’rganishdagi interfaol metodlar haqida so’z yuritishdan oldin interfaol metod haqida qisqacha ma’lumot beriladi.



1 – qoida

Xonani ishlash uchun tayyorlashga e’tibor berish, ya’ni sinf o’quvchilarning kichik va katta guruhlarda ishlashlarini, o’rin almashishlari uchun qulay qilib tayyorlangan bo’lishi kerak. Ijodiy ishlar uchun kerakli materiallar oldindan tayyorlab qo’yilishi maqsadga muvofiqdir.

2 – qoida

Vaqt reglamenti masalalariga e’tiborli bo’lish. Ishni boshlashdan oldin bu haqda kelishib olib, uni buzmaslikka harakat qilish. Masalan, o’quvchilarga har bir kishining fikrini sabr bilan tinglash, boshqalarning so’z erkinligi huquqini hurmat qilishni

3 – qoida

O’quvchilarni guruhlariga bo’lishga e’tibor berish. Avvaliga guruhlarni o’quvchilar ixtiyoriga ko’ra tashkil etish, keyin esa tasodifiy tanlov prinsipiga amal qilish.

4 – qoida

Ishga barcha o’quvchilar u yoki bu darajada jalb etilishi lozim.

O’quvchilarning psixologik tayyorgarligiga e’tibor berish kerak. Gap shundaki, darsga kelganda o’quvchilar birdaniga ishga kirishishga tayyor bo’lmaydilar. Shuning uchun ham ularni tez – tez rag’batlantirib turish kerak.

5 – qoida

6 – qoida


Tahlilni o'tkazish

Bunday usullardan foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, deyarli barcha predmetlar bir o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. Shuning uchun ham sinf sharoiti, materiallar va usullarni shunday tanlash kerakki, bir darsdan ikkinchisiga o'tish va qulay bo'lsin.

Kichik lirik janrning o'qishda asosiy vaziri qayta o'qishga tabiiy qimmati.

1. Ruboiy, tuyuq matni bilan tanishish va ifodali o'qitish.
2. Lug'at ustida ishlash.
3. Savol-topshiriqlar ustida ishlash.

Badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari



Dastlab ruboiy matni bilan tanishiladi. Masalan:

Yo'q dahrda bir besar-u somon mendek,
O'z holig'a sargashta-yu hayron mendek.
G'am ko'yida xonumoni vayron mendek,
Ya'niki aloxon-u alomon mendek.

Navoiy juda ko‘plab ruboiylar yaratgan bo‘lib, ulardan 133 tasi “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kirgan. Devondan o‘rin olgan ruboiylar *falsafiy, ijtimoiy, axloqiy-ta’limiy, ishqiy* mavzularda bitilgan.

Ruboiy ifodali o‘qilgach uning mavzu yo‘nalishi aniqlanadi. Hasbi hol ko‘rinishidagi bu ruboiyda oshiqning iztirobli kechinmalari ifodalangan. Ruboiy mazmunini anglashda ma’nosi notanish so‘zlar izohlanadi.

Dahr – zamon

Besar-u somon – bechora, qashshoq, besaranjom

Sargashta – boshi aylangan

Ko‘y – ko‘cha

Xonumon – ro‘zg‘or buyumlari

Aloxon-u alomon – xonavayron, uy-joysiz

Ruboiyda kuzatilgan lingvo-poetik ifoda, sintaktik hodisa – inversiya, poetik sintaksis – metafora hodisasi o‘rganiladi.

Ruboiydagi qofiyadosh sozlar (muqayyad qofiya) va radiflar aniqlanadi.
Masalan:

Qofiya	Raviy	Radif
Somon	-n	Mendek
Hayron	-n	Mendek
Vayron	-n	mendek
Alomon	-n	mendek

Ruboiyning vazn xususiyatlari quyidagicha jadval asosida o‘rganiladi:


1	2	3	4
Yo‘q dah r – – v	da bi r be v v –	sa r-u so mon v – – –	men dek – –
Maf’uvlu	mafo‘ilun	mafo‘iylun	fa’uvl
O‘z ho li	g‘a sar gash ta	yu hay ro n	men dek

- - v Maf'uvlu	v - - v maf'o'iylu	v - - v maf'o'iylu	- - fa'uvl
G'am ko' yi	da xo nu mo	n vay ro n	men dek
- - v Maf'uvlu	v - v - mafo'ilun	v - - v maf'o'iylu	- - fa'uvl
Ya' ni ki	a lo xon-u	a lo mo n	men dek
- - v Maf'uvlu	v - v - mafo'ilun	v - v - mafo'ilun	- - fa'uvl

Kichik guruhlarda ishlash:

Ruboiy matni	Mavzusi, turi (taronayi yoki xosai ruboiy)	Tushunarsiz so'zlar izohi	Radif va qofiyalar	Obrazlari	Badiiy tasvir vositalari
“Ko‘z bila qoshing yaxshi...” (matn to‘liq o‘qiladi)	Ishq- muhabbat, ma’shuqa tavsifi; taronayi ruboiy (a-a-a-a)	Qabog‘ – qovoq, ko‘z bilan qosh oralig‘i; eng – yuz; meng – xol; dudog‘ – lab, saqog‘ – iyak.	Radif – yaxshi; mutlaq qofiya: qabog‘ing, dudog‘ing, saqog‘ing, ayog‘ing.	Ma’shuqa, lirik qahramon, - oshiq; Yordamchi obrazlar – ko‘z, qosh, meng, dudog‘.	Takrir, ta’did san’atlari

- Ruboiyni o'rganishda ham keng qo'llaniladigan "Klaster" usulidan foydalanamiz.



Tuyuqlar tahlili. Tuyuqlar ifodali o'qiladi.

Yo Rab, ul shahdu shakar yo labdurur,

Yo magar shahdu shakar yolabdurur.

Jonima payvasta novak otqali

G'amza o'qin qoshig'a yolab durur.

Tuyuqning so'zma-so'z tabdili quyidagicha: Yo Rabbim, bu asal-qandmi yoki labmi, yoki qand-u shakar yalabdimikan. Yoki jonimni jazolash, yaralash uchun kipriklaridan yasalgan noz-karashma o'qlarini qoshlariga joylab turibdimi?

Tuyuqlar -a, -a, -b, -a tarzida qofiyalangan.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi asosida lug'at ustida ishlanadi: shahd – asal, yo labdurur – yoki labmikan, yo magar – yoki, yolabduru – yalabdimikan, payvasta – tutash, novak – kamonning o'qi; bu yerda yorning kipriklari, g'amza o'qi – noz-karashma, erkalik, yolab durur – joylabdimikan. Tuyuqda tajnis san'atiga duch kelamiz.

Tahlil savol-topshiriqlar bilan davom ettiriladi.

1. Birinchi misrada oshiq nimadan bunchalar hayratga tushgan deb o'ylaysiz?

2. O‘ylab ko‘ringchi, birinchi bayt bilan ikkinchi bayt oralig‘ida qanday bog‘liqlik bor?

3. Tuyuq zamirida qanday ma‘no yaShiringan?

Tahlil yakunida qit‘a va tuyuqlar o‘rtasidagi ayricha xususiyatlar aniqlanadi va taqqoslanib umumiy xulosalar chiqariladi.

Tuyuq – o‘zbek va ayrim boshqa turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi tajnisli qofiya asosida, aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yaratiladigan to‘rt misradan iborat she‘riy janr. Tuyuqda qofiya shaklan bir xil, mazmunan har xil bo‘lgan so‘zlar asosiga quriladi.

VENN DIAGRAMMASI

VENN DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ruboiy va tuyuqning o‘xshash va farqli jihatlari

Ruboiy

O‘ziga xosligi

- 1. Arab adabiyotida paydo bo‘lib, so‘ngra fors-tojik adabiyotiga kirib kelgan.
- 2. Hazaj bahrining axram va axrab shakllarida yoziladi.
- 3. “To‘rtlik” degan ma‘noni bildiradi.
- 4. Ruboiylar 2 xil bo‘ladi.
- 5. Turkiy adabiyotdagi ilk namunasi Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi.

Farqli jihati

1. Ikkalasi ham 4 misradan iborat.
2. Qofiyalan ish tartibi a-a-b-a

Tuyuq

O‘ziga xosligi

- 1. Faqat turkiy she‘riyatda uchraydi.
- 2. Ramali musaddasi mahzuf vaznida yoziladi.
- 3. Qofiyaga olingan so‘zlar omonim – tajnisli so‘zlar bo‘lishi kerak.
- 4. “tuymoq”, “chigallashtirmoq” ma‘nolarini anglatadi.
- 5. Dastlabki namunalari Yusuf Xos Hojibga tegishli.

Interfaol metodlardan yana biri assistentdir.

Bu metod o'quvchilarni fikrlashga undaydigan va dunyoqarashini shakllantiradigan metodlardan biri hisoblanadi. U jadval ko'rrinishida bo'lib, quyidagicha amalga oshiriladi:

Talabalar "Assisment" topshirig'ini bajaradilar

"Assesment" (inglizcha "assessment" baholash) bir qancha yondashuvlar asosida egallangan bilimlar miqdorini sinash, masalaning mohiyatini chuqurroq tahlil qilish va shaxsning o'zini o'zi baholashiga asos bo'ladi.

Texnologiyani qo'llashda talabaning bir vaqtning o'zida bilimi, savodxonligi, fikrlash qobiliyati sinovdan o'tkaziladi.


O'tkazish tartibi:

Monitorda texnologiya jadvali aks ettiriladi. Har bir talaba mazkur jadval yozilgan tarqatmalar bilan ta'minlanadi va topshiriqlar beriladi. Jumladan, dostonning o'ninchi maqolati "Rostlik ta'rifida" bobidagi inson ma'naviy qiyofasini yorituvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlarini aniqlash yuzasidan quyidagicha topshiriqlar beriladi: talabalar o'z-o'zlarini baholaydilar. Guruhlarda topshiriq bajarib bo'lingach, o'qituvchi to'g'ri javobni o'qib beradi.

Test	Muammoli vaziyat
<p><i>Test</i></p> <p><i>"Xazoyin ul maoniy"ga qancha ruboiy kiritilgan?</i></p> <p><i>a)120 ta</i></p> <p><i>b)135 ta</i></p> <p><i>c) 133ta</i></p> <p><i>d)143 ta</i></p>	<ul style="list-style-type: none"><i>Nima uchun Navoiy ruboiy janriga faol murojaat qilgan?</i> <p>Talaba masalaga shaxsiy nuqtai nazari doirasida muammoni hayotga bog'lab asoslashi zarur bo'ladi.</p>

Simptom	Amaliy ko'nikma
<ul style="list-style-type: none"> • Shoir o'z fikrining isboti uchun ruboiylarida qanday san'atlardan foydalangan? 	Navoiy ruboiylarini tahlil qiling va fikringizni asoslang.

Javoblar jozib bo'lingach, o'qituvchi to'g'ri javobni o'qiydi. Shu asosda talaba xatolarini anglab, o'zini baholaydi



Chun g'araz so'z din erur ma'ni anga/,

Noqil o'lsa xoh xotun/, xoh er.

So'zchi holin boqma/, boq so'z holini/,

Ko'rma/ kim der ani/, ko'rgilkim ne der. (Navoiy, 6:2005-191)

Misralarga qo'yilgan / belgi rukn chegarasini bildirmaydi, balki ifodali o'qishda ohang ko'tarilishi hamda to'xtalish kerak bo'lgan o'rinlar ko'rsatilgan. Shu belgidan keyingi so'z ham aynan shu ko'tarilgan ohang bilan aytila boshlanadi va asta-sekin tushadi. Shunda mazmuni bo'rtirishga xizmat qiladigan *xoh xotun*,

xoh er; boqma, boq; ko'rma kim, ko'rgilkim juftliklariga ohang bilan mantiqiy urg'u berishga muvaffaq bo'linadi.

Ifodali o'qilgach, notanish so'zlarga lug'at beriladi: g'araz – maqsad; noqil – so'zlovchi; so'zchi – so'zlovchi. O'qituvchi birinchi misrani sintaktik tahlil qilib, uni inversiyadan chiqarish bilan gap bo'laklarini odatdagi tartibga keltirish va bu jumlada qanday fikr bildirilganligini aniqlash vazifasini o'quvchilarga yuklaydi. Bolalar qiyinchiliksiz undan ma'no uqadilar: *so'zdan (ya'ni bildirilayotgan fikrdan) maqsad ma'ni erur*. Ikkinchi misra: *so'zlovchi xoh xotin, xoh er bo'lsa*. Misralar shu tarzda ketma-ket qo'yilsa, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap qismlari bo'lmish bu sodda gaplar odatdagi tartibda emasligi uchun uning ma'nosi u qadar o'quvchi uchun tushunarli bo'lmaydi. Xuddi g'azal tahlilida ko'rganimizdek, avval ikkinchi misra (ergash gap)ni, keyin birinchi misra (bosh gap)ni qo'yib, qo'shma gap qismlarini odatdagi tartibda shakllantiramiz: *so'zlovchi xoh xotin, xoh er bo'lsa (ham), so'zdan (ya'ni bildirilayotgan fikrdan) maqsad undagi ma'nidir*. Endi ifoda soddalashib, o'quvchilarga tushunarli bo'lib qoladi.

Uchinchi misrada “hol” so'zi bitta kelishikda – “holin”da qisqargan, “holini” (to'liq) belgili tushum kelishigida takror kelgan bo'lsa-da, bu qo'shimchalar jo'nalish kelishigining uslubiy varianti bo'lib kelmoqda. Ya'ni, *so'zlovchining holiga boqma, so'zining holiga boq*.

To'rtinchi misra bog'lovchisiz qo'shma gapdir. Undagi ikki sodda gapning kesimlari (ko'rma va ko'rgil) inversiya tufayli gapning boshida kelmoqda. Inversiyadan chiqarsak, quyidagi shakl yuzaga keladi: *uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara*.

To'rtala misradan chiqarilgan ma'no jamlanadi va bir o'quvchi ularni o'z tilidan yaxlit ifodalab beradi: *so'zlovchi xoh xotin, xoh er bo'lsa (ham), so'zdan (ya'ni bildirilayotgan fikrdan) maqsad undagi ma'nidir. So'zlovchining holiga boqma, so'zining holiga boq Uni kim aytayotganiga qarama, nima deyayotganiga qara*.

Qit'a badiiyati tahlili fikrni yanada teran idrok etishga, Shoir mahoratini his etishga yo'l ochadi. She'rdagi *noqil* va *so'zchi* bir ma'noda kelgan. Aynan bir

soʻzni takrorlab, sheʻrga nuqs tushirmaslik uchun biri arabcha, biri sof oʻzbekcha ushbu sinonimlarni qoʻllab Shoir qaytariqdan qochgan hamda ularni misralar boshida keltirish orqali ikki xil maqsadda qoʻllanganini taʻkidlagan: noqil umumiy maʼnodagi soʻzlovchi boʻlsa, soʻzchi ayni paytda gapirayotgan kishini nazarda tutadi.

Navbatdagi ikki misra butunlay qaytariqlardan iboratday koʻrinadi. Aslida esa buning teskarisi. Ularda oʻzakdosh yoki aynan takrorlanayotgan soʻzlar zidlikni ifodalashga xizmat qilmoqda. Hol soʻzi bir shakl (kelishik)da, bir misrada kelgan, lekin bu oʻrinda ular omonimlik munosabatida: *soʻzchi holi* birikmasidagi *hol* “koʻrinish”, “shakl” maʼnosida (soʻzlovchining koʻrinishi, kimligi), *soʻz holi* birikmasida esa “maʼnosi” oʻrnida qoʻllangan. Boqmaslik kerak boʻlgani *soʻzchi*, boqish kerak boʻlgan narsa *soʻz* ekan, oʻzakdosh soʻzchi va soʻz leksemalarining kontekstual zidligi oydinlashadi. Oʻzaro bir feʼlning boʻlishsiz va boʻlishli shakllari boʻlmish *boqma – boq* soʻzlari ham aynan shu munosabatdaligi koʻrinib turibdi. Toʻrtinchi misradagi “koʻrma – koʻr”, “kim – ne” ham oʻzaro tazodiy juftliklardir. Keyingi ikki misrada lugʻaviy va grammatik shakllar ikki martadan aynan yoki qoʻshimcha qoʻshish bilan takrorlangan (takrir va ishtiyoq sanʼatlari): soʻzchi – soʻz; holin – holini; boqma – boq; koʻrma – koʻr; kim (olmosh) – kim (bogʻlovchi-yuklama); der - der. Navoiyining yuksak mahorati shundaki, shakliy oʻxshashlikdan taʻkid uchun foydalangan, maʼnolardagi zidlikdan umumlashma xulosa chiqargan. Qarama-qarshi tushuncha va holatlarining yonma-yon qoʻyilishi ularning bir-birlarini maʼnoviy boʻrttirishiga xizmat qilgan.

Tahlil oʻqituvchi tomondangina olib borilmasdan, yoʻnaltiruvchi savol va topshiriqlar, muammoli savollar qoʻyib, mazkur yechimlarga kelishda oʻquvchilarning oʻzini qatnashtirmoq darsning yuksak samarasi belgisidir.

Navoiy qitʼalari oʻtilar ekan, mutafakkir Shoir sheʻrlarida ilgari surilgan pokiza axloq, yuksak insoniy qadriyatlarga intilish, odamdagi ichki illatlar, turli koʻrinishdagi tuban xulqlardan qochish kabi fikrlarning badiiy talqini oʻrganilar ekan, mazkur gʻoyalar tasavvufning bosh gʻoyasi ekanligiga urgʻu berib oʻtiladi. Shu tariqa oʻquvchilar atama (tasavvuf) bilan ilk bor tanishadilar. Shuingdek,

ta'limotning bosh maqsadi, u ilgari surgan g'oyalar qisqa, sodda va ixcham ifodada aytib o'tilib, lozim ko'rilsa, yozdirib qo'yilishi mumkin. Mazkur sinfda shu bilan kifoyalansa bo'ladi. Faqat berilgan tushuncha takrorlash darslarida bot-bot so'rash orqali eslatib turilishi kerak

Tasavvuf haqidagi ma'lumotlar berilgach, ularni amaliy mustahkamlash uchun biror bir kichik hajmli sufiyona ruhda yozilgan she'riy asarni, masalan, Navoiyning «Kamol et kasbkim...» qit'asini tahlil qilib, ko'rsatib berish maqsadga muvofiq. Sinf taxtasiga qit'a yoziladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmagay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih
Erur hammomdin nopok chiqmoq

O'quvchilar ham daftarlariga ko'chirib yozadilar. O'qituvchi oldin bergan ma'lumotlar, tushunchalarga suyangan holda savol-javob tariqasida qit'adagi asosiy so'zlarni sharhlab, tahlil qilishi lozim. Eng avval «kamol» so'ziga e'tibor qaratilib, quyidagi savol beriladi: «Birinchi misra boshidagi «kamol» so'zi tasavvufdagi biz oldingi darsda o'rgangan qaysi tushunchani eslatadi?» O'quvchilar «kamol» so'zi «komil inson» tushunchasini eslatishini tezda yodga oladilar. O'qituvchi «komil inson» ruhan poklangan inson ekanligini savol-javob orqali xotirlatib, yanada mustahkamlaydi. Birinchi misradagi «... et kasbkim» iborasini o'qituvchi o'zi sharhlab berishi kerak: «... et kasbkim» «kasb etmoq» iborasining inversiyaga (so'zlarning joy almashinuvi) uchragan shakli bo'lib, «shakllantirmoq», «hosil qilmoq» kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, «Ulkan tog' olisdan qudrat kasb etadi» yoki «quyosh ufqda bosh qo'yarkan go'zallik kasb etadi» kabi poetik ifodalar bo'lishi mumkin. Ular tog' qudratli bir sur'atni, ko'rinishni hosil qiladi, quyosh go'zallikni shakllantiradi ma'nolarini bildiradi. Demak, birinchi misradagi «kamol et kasbkim» so'zlari orqali Navoiy bobomiz har insonga qarata: «Sen o'zingda kamolni shakllantirgin, ya'ni ruhiy poklanishni hosil qilgin» demoqda. Shundan keyin sinfdan «olam uyi» ifodasining ma'nosi

soʻraladi. Uning maʼnosi biz yashab turgan moddiy dunyo, borlik, ekanini biladilar, albatta.

Ikkinchi misra tahlilida «farz» soʻzi sharhlanishi kerak. Farz Islomga koʻra Ollohning hukmi va irodasi boʻlgan bajarilishi shart, majburiy sanaladigan amallardir. Birinchi misraning ikkinchi yarmi va ikkinchi misraning maʼnosi quyidagicha: Olam uyi - dunyodan gʻamnok chiqishlik senga farz emas. Shu oʻrinda savol beriladi: Dunyodan chiqishlik deganda nima nazarda tutilgan? Olinishi kerak boʻlgan javob: dunyodan oʻtishlik, yaʼni oʻlishlik. Yana savol beriladi: Odam qachon dunyodan gʻamnok chiqadi? Javob: birinchi misra boshida aytilganidek, kamol kasb etmasa. Boshqacha qilib aytganda, komil inson boʻlolmasa, ruhini poklay olmasa.

Oʻqituvchi umumlashtiradi: bundan chiqdi har bir inson uchun komil inson boʻlib, ruhini poklash farz - Ollohning hukmi ekan. Endi dunyodan gʻamnok chiqishlikning maʼnosini chuqurroq oʻylab koʻraylik. Xalqimizda vafot etgan odamga nisbatan «omonatini topshirdi» degan ibora qoʻllaniladi. Bu nima degani? Oʻzlik tushunchasi orqali bildikki, insonning haqiqiy oʻzligi uning Ruhi (yaʼni joni) ekan. Ruh insonga Olloh tomonidan hayotining ilk lahzalaridanoq poklatofatli, begʻubor holda berilgan omonatdir. Hayotining eng soʻnggi lahzalaridan keyin bu omonat boʻlmish Ruhni yana Ollohga qaytaradilar. Yana ham aniqrogʻi, haqiqiy Oʻzlik boʻlmish Ruh Ollohga qaytadi. Kimlardir gunohlari adashish va xatoliklar tufayli kirlangan Ruhni poklab, begʻubor holda Ollohga qaytaradi, kimlardir nafs koʻyiga kirib, gunohlarga botib, dunyodan uzilganda, bulgʻangan, iflos Ruh bilan dunyodan chiqadi, yaʼni Olloh bergan omonatga xiyonat qiladi. Birinchi toifa kishilar poklangan Ruh-oʻzlik bilan dunyodan Olloh huzuriga yorugʻ yuz bilan shod chiqadilar, keyingi toifa kishilar nopok Ruh-oʻzlik bilan dunyodan gʻamnok chiqadilar. Chunki ular oʻz nafslar xohishiga koʻra yoki oʻzlarining buzuq eʼtiqodiga amal qilib, oʻzgalar baxtsizligi, tashvishi yoki malolatiga sabab boʻlganlar. Bunday kimsalar har qancha din niqobiga oʻralmasinlar komil inson sanalmaydilar. Shuing uchun ham ruhan poklanib, komil inson boʻlish, yaʼni kamol kasb etish farzdir.

Uchinchi misrani tushuntirishda «notamom», «biaynih» soʻzlari sharhlanadi. Oʻqituvchi xuddi maʼruza oʻqiyotgandek aytib ketavermasdan bu soʻzlarning maʼnosini oʻquvchilardan soʻrashi maqsadga muvofiq. «Notamom» soʻzining qitʼadagi matniy (kontekstual) maʼnosi «kamol kasb etmay», «ruhiy poklanmay» tushunchalariga toʻgʻri keladi, «biaynih» esa «xuddi», «goʻyoki» degan maʼnoni bildiradi. Demak, jahondan ruhiy poklanmay (notamom) oʻtish xuddi toʻrtinchi misrada aytilganidek, hammomga kirib nopok chiqishga oʻxshaydi. Mana shu oʻrinda qitʼadagi tanosub sanʼatini hosil qiluvchi soʻzlarga eʼtibor qaratiladi: birinchi misrada -«olam uyi», uchinchi misradagi - «jahon», toʻrtinchi misradagi - «hammom» mazmunan bir-biriga yaqin tushunchani ifodalamoqda. Yaʼni, olam uyi boʻlmish bu jahon bir hammom kabidirki, insonlar hayoti unda poklanish uchun berilgan muddatdir. Shuningdek, oʻqituvchi oʻquvchilardan soʻrab, qitʼadagi qofiyani hosil qiluvchi soʻzlarni aniqlaydi. “Gʻamnok” va “nopok” qofiyadosh soʻzlardir. Ular qofiya boʻlishi bilan birga sheʼrning asosiy mazmunini ifodalovchi oʻzak soʻzlardir. Yaʼni, kimki olamdan nopok oʻtarkan, u dunyodan chiqishda gʻamnok boʻladi.

Mazkur qitʼa tahlilida oʻqituvchi diqqat markazida quyidagi maqsadlar boʻlmogʻi kerak:

- tasavvuf taʼlimoti haqida berilgan maʼlumotlarni mustahkamlash va bu taʼlimotni adabiyotga bogʻlash;
- oʻquvchilarga axloqiy, milliy va mafkuraviy tarbiya berish;
- oʻquvchilarda soʻfiyona sheʼrlarni tushunish, tahlil qilish malakasini shakllantirish;
- badiiy sanʼatlar haqidagi bilimlarni takrorlash;
- qofiya haqidagi tushunchani mustahkamlash;
- oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Bu tahlil bilan mavzuni yakunlash mumkin. Agar oʻquvchilar tasavvuf soʻzining maʼnosini, etimologiyasini soʻrashsa, u arabcha «suf» degan soʻzdan olinganligi aytiladi. Suf - echkining terisidan tikilgan dagʻal jun poʻstin, jandadir. Islom dinining ilk davrlarida moddiy dunyoni, molu boylik, turli hashamlarni inkor

qilib, o‘zlarini faqat Ollohga bag‘ishlash istagi bilan yashovchi musulmonlar guruhi paydo bo‘ldi. Ular o‘zlarining mol-dunyoga, o‘tkinchi hoyu-havasga istehzolarini ifodasi sifatida o‘sha davrda arablar orasidagi eng past kiyim bo‘lmish suf kiyib yurganlar. Bu guruh hatto kiyinishlarida ham o‘z dunyoqarashlarini ifoda etgan.

“*Chun g‘araz so‘zdin erur...*” misrasi bilan boshlanagan qit‘ada so‘zlovchi va tinglovchi munosabatlari xususida qanday fikr bildirilayotganligini tushuntiring”; “*So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini, Ko‘rma, kim der ani, ko‘rgil, kim ne der*” baytida chuqur fikr go‘zal shaklga solingan. Buyuk Shoirning nozik kashfiyotini topishga harakat qiling. Bunda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor qiling” kabi savol va topshiriqlar 6-sinf o‘quvchisi uchun ancha og‘ir ekanligi oydinlashdi.

“Hamkorlik kvadrati”. Bu mashg‘ulotda qit‘aning istalgan joyidan bir baytdan olib uni bo‘laklab konvertlarga solinadi. Va guruhdan ushbu baytni tiklash so‘raladi.

M.

Chun g‘araz¹ so‘zdin erur ma'ni anga,

Noqil o‘lsa xoh xotun, xoh er.

So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini,

Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim, ne der.

“Zakovat” o‘yini o‘tkaziladi.

Guruhlarga 3 ta quticha savol beriladi.

1-savol: Yaxshilig‘ gar qilmasa, bori yamonlig‘ qilmasa, - Kim yamonlig‘ qilmasa, qilg‘ancha bordur yaxshilig‘.

” degan edi, u nima? ()

2-savol: Ko‘p oltun, kumush sari qo‘l sunmog‘il¹, - Ki tutsang, kafmgni qora zang etar.u narsa nima?

3-savol: Yuqori o‘ltururni kim tilasa, Kishilikdin ani yiroq bilgil. degan?

¹G‘ a r a z - maqsad, niyat.

Tanqidiy tafakkur

«Tanqidiy tafakkur» uslubi o'quvchi qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan. o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, baxsli masalalarni hal qilish, taxliliy mushoxada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

«Tanqidiy tafakkur»ni o'tkazish uslubiyati.

1.O'quvchilarga mubohasa xarakteridagi muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo'yiladi va quyidagi savollar beriladi:

-Nima deb o'ylaysiz?

-Fikringiz qanaqa?

-Sizningcha qanday?

Bu kabi savollar o'quvchi o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

4.O'qituvchi ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan boshqa fikrda bo'lgan ta'lim oluvchilarga so'zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Kimda boshqa fikr bor, nega?

-Kim aytilgan fikrni ma'qullamaydi, nega?

5.O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda xar xil nuqtai nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Nega boshqa o'quvchining nuqtai nazarini ma'qullamaysiz?

-O'z nuqtai nazaringizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6.Muammoni topshiriq, masala, chalkash masala bo'yicha qabul qilingan qarorga o'quvchilar tomonidan o'z nuqtai nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

-Sizningcha, kimning nuqtai nazari eng maqbul?

-Yuzaga kelgan vaziyatdan qaysi yo‘l bilan chiqish ma’qulroq?

Noqis uldurkim, o‘zin komil degay,

Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.

O‘z kamolidin demas ahli kamol

Ahli nuqson ichradur bu qilu qol.

Sen nuqson ichra komilsen, base,

Olim aytib o‘zni, johilsen base.

Shoir nuqson ichra komillik deganda nafsdan xalos bo‘lmagan o‘zlikni nazarda tutadi. U komillikni nafs hukmronligidan ozod bo‘lgan yangi bir ruhoniyyat “men”ga asoslanadi, deydi. Insonning imoni va vijdoni anashu “men” tasarrufiga o‘tsagina u komillikka yetib bora oladi.

«Nuqtai nazaring bo‘lsin» metodi.

Uslub maqsadi:

-o‘quvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o‘rganadilar;

-o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;

-o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

«Nuqtai nazaring bo‘lsin» uslubi o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo‘llanadi.

Mashqni o‘tkazish uslubiyati

1. Tayyorgarlik: o‘qituvchi sinfning to‘rt burchagiga yoki sinfning ma’lum ochiq makoniga to‘rtta tablichka osib qo‘yadi.

2. Sinf o‘lcham yoki o‘quvchilar soniga bog‘liq holda olti yoki sakkiz ko‘ngillini chaqiradi. Bordi-yu, o‘yinda sinf o‘quvchilarning bir qismi ishtirok etsa, unda qolganlari o‘z joylarida o‘tiraveradilar.

3. O‘yin paytida band bo‘lishi uchun ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga ham

topshiriq berish zarur.

O‘yining o‘zini boshlashdan avval o‘qituvchi darsga yo‘l-yo‘riqlar berishi zarur, jumladan:

1. Ta’kidlov o‘qib berilganidan keyin o‘z fikringizga muvofiq tablichkalar yonidan joy egallang.

2. O‘z nuqtai nazaringizni asosli dalillab berishga shay turing.

3. Agar muammoga nuqtai nazaringizni o‘zgartirishga undovchi asosli dalilni eshitsangiz, o‘z o‘rningizni almashtirishingiz mumkin.

4. Sinfdoshlaringiz ta’kidlariga o‘z fikringizni bayon etishga shay turing.

5. O‘qituvchi o‘yinda ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga topshiriqlar beradi, masalan:

- ularning fikricha eng ahamiyatli ta’kidlovlarni yozib borish;
- o‘yin jarayonida o‘z o‘rnini o‘zgartirmagan o‘quvchilarni yozib borish;
- eng asosli dalillab berilgan javoblarni yozib borish.

Uch kishidin uch ish yomon ko‘rinur,

Sanga arz aylay ahli dunyodin:

Shohdin tundlig‘, g‘anidin buxl,

Molg‘a maylu, hirs donodin.

Ko‘rinadiki, shoir qit’alarini o‘rganishda qo‘llanilgan metodlar, Navoiyning mohir qit’anavisligi haqida muayyan tasavvurlar beradi.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklari tahlili

Istiqlol yillarida mamlakatimizda yosh avlodni ma'nan yuksak insonlar qilib tarbiyalash davlat miqyosidagi muhim vazifa darajasiga ko'tarildi. Chunki yuksak ma'naviyatli insonlar yashaydigan mamlakat iqtisodiy, siyosiy jihatdan taraqqiy topadi va bunday jamiyatning kuchli bo'lishi ham muqarrardir. Bu borada ta'lim-tarbiya sohasi mutaxassislariga, targ'ibot-tashviqot hodimlariga katta mas'uliyat yuklanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan isloxlarning mantiqiy davomi bu Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishidir. Universitetning tashkil etilishi tilimizga, uning jahonda munosib o'rnini topishiga berilayotgan e'tiborning nishonasidir. Farmonda ta'kidlanganidek, O'zbek adabiy tili ayniqsa XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Bunda ulug' Shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rnini va hissasi kattadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot fani mazmunan xalq og'zaki ijodi, o'zbek adabiyoti tarixi, yangi o'zbek adabiyoti, yangi o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti tarzida o'qitiladi. Adabiyot namunalarini bunday turkumlab o'rganish muayyan darajada o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham yengilliklar yaratadi. Ammo uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti tarixi namunalarini, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'qitishda muayyan murakkabliklar tug'iladi. Shuni e'tiborga olgan holda biz ushbu qo'llanmada Navoiy ijodini o'qitishning zamonaviy usullarini tahlil etishga harakat qildik. Ushbu kuzatishlarimiz bo'lg'usi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga yordam beradi, degan umiddamiz.

Adabiyotshunos V.Qodirov ta'lim bosqichlarida mumtoz adabiyot namunalarini, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishdagi muammolar haqida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Adabiy ta'limda nufuzli o'rin tutishiga qaramay, mumtoz adabiyot namunalarini, Navoiy ijodini o'qitish hozirgacha qoniqarli bo'lmay kelmoqda. Buning bir qator sabab va omillari bo'lsa-da, ular ichida ikkitasi yetakchi sanaladi. Bu, bir tomondan, direktiv xujjatlar - standart,

dasturlar va ular asosida yaratilgan darslik, metodik qo'llanmalar bilan bog'liq bo'lib, endilikda ular ilmiy jihatdan isbotlangan, amaliyotda o'z tasdig'ini topgan mezonlar asosida qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim.

Ikkinchi tomondan, darsning ijodkori, amaliyotchisi va ijrochisi bo'lmish o'qituvchi shaxsiga borib taqaladiki, endilikda filolog-o'qituvchilar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash sifatiga, xususan, bo'lg'usi adabiyot muallimlarining mumtoz adabiyot bo'yicha bilim va saviyalariga mas'uliyatni oshirish darkor¹.

Ko'rinadiki, Navoiy ijodini o'rganishdagi murakkabliklar bir tomondan direktiv hujjatlar - standart, dasturlar va ular asosida yaratilgan darslik, metodik qo'llanmalar bilan bog'liq bo'lsa, yana bir jihatdan, o'qituvchi shaxsiyati bilan bevosita bog'lanadi.

Umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun "Ona tili va adabiyot" fani bo'yicha "Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi"da o'quvchilarning adabiy ta'limda egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari keltiriladi². Unga ko'ra o'quvchilarning har bir sinfda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi uzluksiz ta'lim tizimida quyidan murakkabga qarab o'qitiladi. Umumta'lim maktablarining 5-9 sinflarida Navoiyning lirik merosi, axloqiy-ta'limiy xarakterdagi asarlari va "Xamsa" dostonlarini o'rganish rejalashtirilgan. 5-7 sinflarda Navoiyning axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlari o'qitilsa, 8-9 sinflarda lirikasidan namunalar, "Xamsa" dostonlari o'rganiladi. Navoiy lirik merosi va "Xamsa"si bevosita tasavvufona g'oyalar bilan bog'lanib, umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari buni tushuna oladi. Shuing uchun ham shoirning g'azal va dostonlari tahlilini bevosita tasavvufona g'oyalar bilan bog'liqlikda amalga oshirish lozim. Bu o'quvchiga shoir asarlari mazmunini

¹ Qarang: Qodirov V. Ta'lim bosqichlarida Navoiy ijodini o'rganish muammolari / Alisher navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Navoiy, O'zbekiston, 2017. – B.423

² Qarang: Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili, adabiyot, O'zbek tili. (5-9 sinflar) – T., 2010

chuqurroq tushunishi, Navoiy ijodidagi ramziylikning mohiyatini to'laroq anglashi uchun yordam beradi.

Navoiy hayoti va ijodining uzluksiz ta'lim tizimida o'qitilishi haqida aniqroq tasavvurlar hosil qilish uchun umumta'lim maktablari dastur va darsliklarini kuzatish maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga umumta'lim maktablarining 5-9 sinflari uchun jami: 28 soat, akademik litseylar uchun: 12 soat, kasb-hunar kollejlari uchun: 10 soat rejalashtirilgan. Uzluksiz ta'lim tizimi dasturlarida ulug' mutafakkir ijodini to'laroq qamrab olishga harakat qilingan.

Umumta'lim maktablarining 5-sinfi dasturida Navoiyning hayoti va ijodi, «Hayrat ul-abror» dostoniga 4 soat ajratilgan. Unda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish, «Hayrat ul-abror» buyuk shoirning «Xamsa» asarining birinchi dostoni ekanligi haqida so'z yuritilib, dostondagi chin va yolg'on so'zni solishtirish ko'zda tutiladi. Dostonda to'g'rilikning qanchalar azob bilan bo'lsa-da, g'olib kelishi, yolg'on va egrilikning oxir-oqibat yengilishi SHER bilan Durroj qismati misolida tasvirlangani o'rganish mo'ljallangan.

Dasturga ko'ra, dostonning o'ninchi maqolotidan olingan hikoyatning ramziy ma'nosi va inson ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlarini o'rganish orqali o'quvchida insoniy fazilatlarini kamol toptirish rejalashtirilgan.

Umumta'lim maktablarining 5-sinfi "Adabiyot" darsligida "Hayrat ul-abror" dostonining 10-maqoloti va unga ilova qilingan "Sher bilan Durroj" hikoyati nasriy bayoni bilan birgalikda beriladi¹. Dostondan keltirilgan maqolot va hikoyatning nasriy bayon bilan birgalikda berilishi o'quvchi uni tushunishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ammo faqatgina nasriy bayon bilan cheklanib qolmasdan, matnning o'zi bilan tanishib, zarur o'rinlardagina nasriy bayonga murojaat qilish lozim.

Umumta'lim maktablarining 6-sinfi dasturida Alisher Navoiyning hikmatli

¹ Qarang: Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., RizaevSh. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2-qism. – T.: Sharq, 2015. – B.93-106

soʻzlariga 4 soat dars ajratilgan. Unda Navoiy hikmatli soʻzlarining mazmun-mohiyati, umrboqiylikiga eʼtibor beriladi. «Mahbub ul-qulub»ni hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida oʻrganish, asarning «Saxovat va himmat bobida», «Hilm zikrida», «Safar manofi zikrida» qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgoʻylik va yolgʻonchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning oʻziga xosliklarini tahlil etish nazarda tutiladi. Nazariy maʼlumot qismida esa hikmatli soʻz haqida maʼlumot beriladi.

Umumtaʼlim maktablarining 6-sinfi darsligida Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridagi «Saxovat va himmat bobida», «Hilm zikrida», «Safarning foydalari toʻgʻrisida»gi boblar keltirilgan¹. Ushbu boblarning nasriy bayonining keltirilishi, Navoiyning hikmatli soʻzlari va “Mahbub ul-qulub” asari haqidagi oʻrinlar oʻquvchini asar haqida toʻlaroq maʼlumot olishiga yordam beradi.

7-sinf dasturida Alisher Navoiyning «Sabʼai sayyor» dostonidagi «Mehr va Suhayl» hikoyatiga 4 soat rejalashtirilgan.

Bunda «Sabʼai sayyor» Shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida oʻrganiladi. «Sabʼai sayyor» dostonida beshinchi iqlim yoʻlidan kelgan musofirning “Mehr va Suhayl” haqidagi hikoyasida sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuygʻular ifodasi kuzatiladi. Hikoyatdagi obrazlar tahlil qilish rejalashtiriladi.

Umumiy oʻrta taʼlimning 7-sinf “Adabiyot” darsligida Navoiyning “Sabʼai sayyor” dostonidagi “Mehr va Suhayl” hikoyati keltiriladi. Ushbu darslikda keltirilgan hikoyatning ahamiyatli tomoni shundaki har bir bayt izoh va tabdil bilan birga berilgan². Hikotning har bir sahifasida tuShunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar lugʻati keltiriladi. Bu oʻquvchiga hikoyat matnini tez va osonroq anglab yetishi uchun yordam berishi bilan birgalikda ularda lugʻat bilan ishlash koʻnikmalarini ham hosil qiladi.

Navoiyning lirik merosi umumtaʼlim maktablarining 8-sinfi dasturida keltirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki 8-sinf oʻquvchisi yosh va fikrlash

¹ Ahmedov S., Qoʻchqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. 2-qism. – T.: Sharq, 2013. – B.32-48

² Qarang: Yoʻldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yoʻldoshibekov J. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. – T. Sharq, 2013. – B.161-215

jihatidan Shoir lirikasi mohiyatini, gʻazallaridagi ramziy-majoziy tasvir usullarini tushuna oladi. Dasturda Alisher Navoiyning gʻazal va qitʼalariga 6-soat ajratilgan. Mazkur oʻrinda Shoirning gʻazal mulkining sultoni ekanligi, «Xazoyin ul – maoniy haqida qisqacha maʼlumot, Navoiy sheʼriyatining mavzu qamrovi va badiiyati haqida qisqacha maʼlumotlar berish rejalashtirilgan. Shoirning «Kecha kelgumdur...», «Qaro koʻzum...», «Koʻrgali husnungnu...», «Jonga chun dermen...» singari gʻazallarini tahlil qilish nazarda tutilgan. Shoirning qitʼanavislik mahorati «Kamol et kasbkim, olam uyidin», «Jahon ganjigʻa shoh erur ajdah» qitʼalarining gʻoyaviy-badiiy mazmuni va mohiyati, qitʼalarning tuzilishi, tasvir xususiyatlari misolida yoritiladi. Nazariy maʼlumotda gʻazal haqida maʼlumot berish moʻljallangan.

8-sinf uchun yaratilgan “Adabiyot” darsligida Shoirning «Qaro koʻzum kelu mardumligʻ emdi fan qilgʻil», «Qoshi yosinmu deyin...», «Kecha kelgumdur debon...», «Yordin ayri koʻngul...», “Boʻldum sanga” gʻazallari, «Kamol et kasbkim, olam uyidin», qitʼalari baytma-bayt tahlili bilan berilgan¹. Ushbu darslikda oʻquvchilarning mustaqil oʻqishlari uchun gʻazal va qitʼalardan namunalar keltirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Navoiyning “Xamsa” dostoni murakkab kompozitsiya va syujetga ega boʻlib, maktab dasturiga muvofiq uni oʻqitish 9-sinfga rejalashtirilgan. Dasturda Alisher Navoiyning «Xamsa» asariga 10 soat ajratilgan.

Dastavval Navoiy ijodi – oʻzbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi ekanligi, Shoirning hayot va ijod yoʻli haqida maʼlumot beriladi. «Xamsa» - oʻzbek epik sheʼriyatining betimsol namunasi sifatida qaralib, Sharq adabiyotida xamsachilik anʼanasi, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy «Xamsa»lari haqida maʼlumot beriladi. Navoiyning “Xamsa”si turkiy tilda «Xamsa» yozishda badiiy va milliy jasorat namunasi boʻlganligi aytilib, «Xamsa»ning tarkibiy qurilishi haqida maʼlumot beriladi.

Dasturda «Farhod va Shirin» dostonining «Xamsa»da tutgan oʻrni, badiiy

¹ Olimov S. , Ahmedov S., Qoʻchqorov R. Adabiyot. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. – T. : Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – B.98-142

xususiyatlari tahlilga tortiladi. Farhod Shoir ideali tajassumi sifatida qaralib, u orqali komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri tahlil etiladi. Shirin obrazida turk ayollariga xos eng baland ma’naviy fazilatlar talqini mujassamligi o‘rganiladi. Dostondagi boshqa obrazlar tahlilga tortiladi. Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o‘rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko‘rsatilgani kuzatiladi. Nazariy ma’lumotda adabiyotda komil inson tasviri haqida ma’lumot beriladi.

Umumta’lim maktablarining 9-sinfi “Adabiyot” darsligida “Farhod va Shirin” dostonidan namunalar berilgan¹. Darslikdagi “Farhod va Shirin” dostoni va komil inson haqidagi ma’lumotlar o‘quvchida katta taassurot qoldiradi.

Akademik-litseylarning 2-bosqichi dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishga 12 soat ajratilgan. Unda 6 soat dars Alisher Navoiy hayoti va ijodini, lirik merosini o‘rganishga ajratilgan. Qolgan 6-soatda esa Navoiy “Xamsa”si o‘rganiladi.

Navoiyning epik asarlari, “Xamsa”va xamsachilik an’anasi, “Hayrat ul-abror” dostoni mavzuga 4 soat ajratiladi. Unda Sharq adabiyotidagi xamsachilik an’anasi, bu an’ana rivojida Navoiyning o‘rni tahlil etiladi. “Xamsa” dostonlarining mantiqiy aloqadorligiga urg‘u beriladi. “Xamsa” dostonlarida dunyoviy va tasavvufiy g‘oyalar ifodasi haqida ma’lumotlar beriladi. “Hayrat ul-abror”dostonining tarkibiy tuzilishi va undagi obrazlar tahlil etiladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda avvalo talabani umumta’lim maktablarida Navoiy “Xamsa”sidan qay darajada xabardorligi e’tiborga olinadi. Imkon qadar umumta’lim maktablaridagi fikrlarni to‘ldirish va mantiqiy bog‘langan holda davom ettirishga e’tibor beriladi.

Keyingi 2 soatda “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy”dostonlari o‘rganiladi. “Sab’ai sayyor”dostonida xamsanavislar an’analarining davom ettirilishi, Bahrom va Dilorom mavzuining ishlanishi va bu boradagi Navoiyning

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. 1-qism. – T.:Yangiyo‘l poligraf servis, 2014. – B.59-93

o‘ziga xosligi, dostonidagi hikoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. ”Saddi iskandariy” dostonida Navoiyning mahorati kuzatiladi.

Akademik litseylarning 2-kursi uchun tuzilgan “Adabiyot” majmuasida Alisher Navoiyning lirik she’rlari bilan bir qatorda “Xamsa” dostonlaridan namunalar ham keltiriladi. Unda har bir dostonidan keltirilgan parchalarda tuShunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati berib boriladi. Majmuada keltirilgan namunalar maktab darsliklarini imkon qadar yanada to‘ldirishga qaratilgan¹.

Kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan “Ona tili va adabiyot” fanidan o‘quv dasturida Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidan parchalarni o‘rganishga 10 soat ajratilgan.

Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati, uning Shoir, olim, davlat arbobi sifatidagi faoliyati kuzatiladi. “Hayrat ul- abror” dostonidagi o‘ninchi maqolot - “Rostlik ta’rifida...”da o‘rganiladi. Navoiyning rost va yolg‘on haqidagi qarashlari tahlilga tortiladi.

“Layli va Majnun” dostonidagi ishq-muhabbat, inson erki talqini va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, dostonidagi timsollarni o‘rganish rejalashtirilgan.

Kasb-hunar kollejlarining 1-bosqichi “Ona tili va adabiyot” darsligida Shoirning “Hayrat ul- abror” va “Layli va Majnun” dostonidan boblar nasriy bayoni bilan keltiriladi².

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati o‘rganish maktab, litsey va kasb-hunar kollejlarida kattagina o‘rinni egallaydi. Dastur va darsliklarda Shoir faoliyatining turli qirralarini o‘rganish va bugungi yosh avlodga bu haqda ma’lumotlar berish nazarda tutilgan.

¹ Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014. – B.3-141

² Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Sharq, 2013. – B.191-220

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Mavzu	Navoiy ruboiy, tuyuq va qit'alari
Darsni olib borish texnologiyasi	
Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni – 30tagacha
O'quv mashg'ulotining shakli	Informatsion bahs-munozarali dars
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rni. 2. Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlar. 3.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rni. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplarini tahlil qilish.	
Pedagogik vazifa:	O'quv faoliyatining natijasi:
1. Talabalarga Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rni. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplari haqida ma'lumot beradi.	1. Talabalar Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rni. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplarini o'rganadilar.
2. Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlarning tushuntirish orqali Navoiyning mohir shoir ekanligini anglab yetish.	2. Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlarning tushuntirish orqali Navoiyning mohir shoir ekanligini anglab yetadilar. .
3. Mavzuni o'rganishda "Beshinchisi ortiqcha", Ven diagrammasidan foydalanish. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, qiyosiy tahlilga o'rgatish.	3. Mavzuni o'rganishda "Beshinchisi ortiqcha", Ven diagrammasidan foydalanish. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, qiyosiy tahlilga o'rgatiladi.
Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur adabiyotlar ro'yxati	<ol style="list-style-type: none"> 1. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999 2. Mumtoz adabiyot namunalar. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboev, N. Rahmonov. – T: O'zMU nashriyoti, 2002. 3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006. 4. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: Ma'naviyat. 2005. 5. I. Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. – T., 1991. 6. Adabiyot. Majmua. Akademik litseyning 2 bosqich o'quvchilari uchun/ To'xliyev B., Mirsamigova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, "Qanday?" texnikasi, "Klaster", "FSMU" uslubi, "Insert"
Ta'lim berish shakllari	Jamoa bo'lib ishlash
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter, proektor, tarqatma

	material, slaydlar.
Ta'lim berish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og'zaki nazorat, savol-javobli so'rov, o'quv topshiriq.

6.2. ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish jarrayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1-bosqich Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova) 1.2. Adabiyotlar ro'yxati bilan tanishadilar. (2-ilova) 1.3. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (3- ilova)	Tinglaydi, mavzu nomi va rejasini yozib oladi Yozib oladi. Tinglaydi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti bo'yicha tarmoqlash usuli yordamida ma'ruza qiladi (4-ilova) 2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti klaster usulida tushuntiriladi.(5-ilova) 2.3.Mavzu rejasining uchinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (6-ilova) 2.4. Mavzu rejasining to'rtinchi punkti bo'yicha ma'ruza tarmoqlash usuli orqali amalga oshiriladi (7-ilova) 2.5. Mavzuni o'rganishda «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (8-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Tinglayli, yozib oladi. Tinglaydi,yozib oladi. Tinglaydi, yozib boradi Tinglaydi, yozib boradi. Savollarga javob beradi, erkin bahsmunozara yuritadi. Guruhlarda ishlaydi.
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Talabalarning baholarini e'lon qilidi. 3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "insert" usulida jadvalda ko'rsatilgan yo'sinda mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (9-ilova).	

Mavzu: Navoiy ruboiy va tuyuqlarini o'rganishda interfaol usullar

1. Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rne. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplari.

2. Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlarning tushuntirish orqali Navoiyning mohir shoir ekanligini anglab yetish.

3. Mavzuni o'rganishda "Beshinchisi ortiqcha", Ven diagrammasidan foydalanish. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, qiyosiy tahlilga o'rgatish.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rne. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplarini tahlil qilish.

O'quv faoliyatining natijasi: 1. Talabalar Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rne. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplarini o'rganadilar. 2. Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlarning tushuntirish orqali Navoiyning mohir shoir ekanligini anglab yetadilar. 3. Mavzuni o'rganishda "Beshinchisi ortiqcha", Ven diagrammasidan foydalanish. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, qiyosiy tahlilga o'rgatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999
2. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar H. Boltaboev, N. Rahmonov. - T.: O'zMU nashriyoti, 2002.
3. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T., 2006.
4. Komilov N. Xizr chashmasi. - T.: Ma'naviyat. 2005.
5. I. Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. - T., 1991.
6. Adabiyot. Majmua. Akademik litseyning 2 bosqich o'quvchilari uchun/ To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. - T.: Bayoz, 2014

Navoiy lirik merosida ruboiy va tuyuqning o'rne. Shoir ruboiy va tuyuqlarining o'qitish printsiplari.

Ruboiy - Sharq she'riyatining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, bu janrning yuzaga kelishi xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liqdir.

Bu shakl o'z nomlanishini arablardan olgan bo'lsa ham (ruboiy - arabcha to'rtlik demakdir), fors-tojik va o'zbek adabiyotida uning yuzaga kelishi milliy adabiy an'analar bilan mustahkam bog'langan. Fors-tojik yozma adabiyotida ruboiyning dastlabki namunalari Rudakiy va Shahidi Balxiylar qalamiga mansub bo'lsa, o'zbek yozma, adabiyotida haqiqiy ruboiyning bir necha namunasi Lutfiy devonida uchraydi.

Alisher Navoiy ruboiynavislikda ikki asosga - o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti va turkiy tildagi yozma adabiyot tajribalari hamda fors-tojik ruboiynavislarining boy tajribalariga suyandi, o'zbek tilida klassik ruboiylarning rang-barang namunalari yaratdi.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning «G'aroyib us-sig'ar» devoniga 133 ta ruboiy kiritilgan. Shu devonning nasr bilan yozilgan debochasi tarkibida ham 30 ta ruboiy mavjud. Shuningdek, uning boshqa ilmiy, badiiy asarlari tarkibida ham ko'plab o'zbekcha ruboiylar (shoirning o'ziniki) mavjud. Bunga shoirning «Devoni Foni»dagi va boshqa asarlari tarkibida uchraydigan yuzga yaqin forsiy ruboiylari va «Nazm ul-javohir» (270 ta) ruboiylarini ham ilova qilsak, Alisher Navoiyning mazkur janr taraqqiyotidagi o'rne yorqin namoyon bo'ladi.

Tuyuq turkiy xalqlar adabiyoti uchun xos bo'lgan she'riy shakl bo'lib, Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida uning go'zal namunalari yaratilgan.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon»da bu haqda shunday yozadi: «Yana turk ulusi, bataxis chiratoy xalqi aro shoye' avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqqim:

Yorab, ul shahdu shakar yo labmudur,
Yo magar shahdu shakar yolabmudur.
Foilotun foilotun foilon,
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur».

Shoir ruboiy va tuyuqlariga xos xususiyatlarning tushuntirish orqali Navoiyning mohir shoir ekanligini anglab yetish.

Navoiyga qadar yaratilgan o'zbekcha ruboiylar, asosan, ishq mavzuida edi. Navoiy ruboiylari mavzusinnng xilma-xilligi, mundarijasining chuqurligi, chuqur g'oyaviyligi bilan o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Ularda hamd, na't, falsafiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy mavzular tasvirlanadi. Ishq-muhabbat, adolat, vatanparvarlik, imon-e'tiqod, vafo, sadoqat, to'g'rilik, haqiqat, kelajakka umidvorlik g'oyalari yuksak badiiyat bilan aks ettiriladi. Masalan:

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Ushbu ruboiy misralarining to'rtalasi ham qofiyalangan bo'lib, qofiyalanish tartibiga ko'ra taronai ruboiydir. Unda shoir so'zni qadr-qimmatini yuksak sanab, uni "guhari sharif" deb ataydi. Inson tirikligining nishoni so'z ekanligini ta'kidlagan shoir uni hayvondan farqlaydigan asosiy vosita bu so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida deb biladi. Shoir falsafiy umumlashmalarida tiriklikning qadriga yetish, so'zga mas'uliyat g'oyalari mujassamlashgan.


Navoiy ruboiylarining katta qismi umuman uning ijodida asosiy o'rin tutgan masala – ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Navoiy odil podshoh xaqidagi mulohazalarini ham bu janr imkoniyatlaridan foydalanib badiiy ifoda etgan. U jamiyatdagi yaramas va chirkin illatlarga, adolatsizlik va insofsizlikka, zulm va jaholatga nisbatan cheksiz nafratini ruboiylarida ixcham bayon qiladi.

Tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan iborat bo'ladi. Tuyuq tajnisi qofiyaga asoslangan va albatta ramali musaddasi maqsur vaznida bitiladi. Yuqorida Navoiy keltirgan tuyuq "yolabmudur" tajnisi asosiga qurilgan. Unda shoir ma'shuqa go'zalligini ta'riflaydi. Bu so'z birinchi misrada labmikan, ikkinchi misrada yalaganmikan, to'rtinchi misrada yoylabdimikan ma'nolarida qo'llanilgan. Shoir yorning lablari ta'rifini keltirar ekan, uni labmikan, shakarmikan, asalmikan yoki yorim shakar, asal yalaganmikan, deya hayratlanadi. Keyingi misralarda ma'shuqaning qoshi tasvirlanadi. Bunda bu qoshmikan yoki u mening jonimga o'q otish uchun g'amza o'qlarini qoshlariga tizib yoylabmikan, deydi. Bunda shoir tajohilu orif vositasida oshiqning yorga munosabati mahorat bilan ifodalangan.

Tahlilni o‘tkazish tartibi:

Kichik lirik janrlarni o‘qitishda adabiy tahlil quyidagicha tashkil qilinadi:

1. Ruboiy, tuyuq matni bilan tanishish va ifodali o‘qitish.
2. Lug‘at ustida ishlash.
3. Savol-topshiriqlar ustida ishlash.



Dastlab ruboiy matni bilan tanishiladi. Masalan:

*Yo‘q dahrda bir besar-u somon mendek,
O‘z holig‘a sargashta-yu hayron mendek.
G‘am ko‘yida xonumoni vayron mendek,
Ya‘niki aloxon-u alomon mendek.*

Navoiy juda ko‘plab ruboiylar yaratgan bo‘lib, ulardan 133 tasi “G‘aroyib us-sig‘ar” devoni tarkibiga kirgan. Devondan o‘rin olgan ruboiylar *falsafiy, ijtimoiy, axloqiy-ta’limiy, ishqiy* mavzularda bitilgan.

Ruboiy ifodali o‘qilgach uning **mavzu yo‘nalishi aniqlanadi**. Hasbi hol ko‘rinishidagi bu ruboiyda oshiqning iztirobli kechinmalari ifodalangan. Ruboiy mazmunini anglashda **ma’nosi notanish so‘zlar izohlanadi**.

Dahr – zamon

Besar-u somon – bechora, qashshoq, besaranjom

Sargashta – boshi aylangan

Ko‘y – ko‘cha

Xonumon – ro‘zg‘or buyumlari

Aloxon-u alomon – xonavayron, uy-joysiz
 Ruboiyda kuzatilgan lingvo-poetik ifoda, sintaktik hodisa – inversiya, poetik sintaksis – metafora hodisasi o‘rganiladi.

Ruboiydagi qofiyadosh sozlar (muqayyad qofiya) va radiflar aniqlanadi. Masalan:

Qofiya	Raviy	Radif
Somon	-n	mendek
Hayron	-n	mendek
Vayron	-n	mendek
Alomon	-n	mendek

Ruboiyning vazn xususiyatlari quyidagicha jadval asosida o‘rganiladi:

1	2	3	4
Yo‘q dah r - - v Maf’uvlu	da bi r be v v - mafo’ilun	sa r-u so mon v - - - mafo’iylun	men dek - - fa’uyl
O‘z ho li - - v Maf’uvlu	g‘a sar gash ta v - - v maf’o’iylu	yu hay ro n v - - v maf’o’iylu	men dek - - fa’uyl
G‘am ko‘ yi - - v Maf’uvlu	da xo nu mo v - v - mafo’ilun	n vay ro n v - - v maf’o’iylu	men dek - - fa’uyl
Ya’ ni ki - - v Maf’uvlu	a lo xon-u v - v - mafo’ilun	a lo mo n v - v - mafo’ilun	men dek - - fa’uyl

Kichik guruhlarda ishlash:

Ruboiy matni	Mavzusi, turi (taronayi yoki xosai ruboiy)	Tushunarsiz so‘zlar izohi	Radif va qofiyalar	Obrazlari	Badiiy tasvir vositalari
“Ko‘z bila qoshing yaxshi...” (matn to‘liq o‘qiladi)	Ishq-muhabbat, ma’shuqa tavsifi; taronayi ruboiy (a-a-a-a)	Qabog‘ – qovoq, ko‘z bilan qosh oralig‘i; eng – yuz; meng – xol; dudog‘ – lab, saqog‘ – iyak.	Radif – yaxshi; mutlaq qofiya: qabog‘ing, dudog‘ing, saqog‘ing, ayog‘ing.	Ma’shuqa, lirik qahramon, - oshiq; Yordamchi obrazlar – ko‘z, qosh, meng, dudog‘.	Takrir, ta’did san’atlari

Tuyuqlar tahlili. Tuyuqlar ifodali o‘qiladi.

Yo Rab, ul shahdu shakar yo labdurur,
 Yo magar shahdu shakar yolabdurur.
 Jonima payvasta novak otqali
 G‘amza o‘qin qoshig‘a yolab durur.

Tuyuqning soʻzma-soʻz tabdili quyidagicha: Yo Rabbim, bu asal-qandmi yoki labmi, yoki qand-u shakar yalabdimikan. Yoki jonimni jazolash, yaralash uchun kipriklaridan yasalgan noz-karashma oʻqlarini qoshlariga joylab turibdimi? Tuyuqlar -a, -a, -b, -a tarzida qofiyalangan.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi asosida lugʻat ustida ishlanadi: shahd – asal, yo labdurur – yoki labmikan, yo magar – yoki, yolabduru – yalabdimikan, payvasta – tutash, novak – kamonning oʻqi; bu yerda yorning kipriklari, gʻamza oʻqi – noz-karashma, erkalik, yolabdurur – joylabdimikan. Tuyuqda tajnis sanʼatiga duch kelamiz.

Tahlil savol-topshiriqlar bilan davom ettiriladi.

1. Birinchi misrada oshiq nimadan bunchalar hayratga tushgan deb oʻylaysiz?
2. Oʻylab koʻringchi, birinchi bayt bilan ikkinchi bayt oraligʻida qanday bogʻliqlik bor?
3. Tuyuq zamirida qanday maʼno yashiringan?

Tahlil yakunida qitʼa va tuyuqlar oʻrtasidagi ayricha xususiyatlar aniqlanadi va taqqoslanib umumiy xulosalar chiqariladi.

Tuyuq – oʻzbek va ayrim boshqa turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi tajnisli qofiya asosida, aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yaratiladigan toʻrt misradan iborat sheʼriy janr. Tuyuqda qofiya shaklan bir xil, mazmunan har xil boʻlgan soʻzlar asosiga quriladi.

VENN DIAGRAMMASI

VENN DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qoʻyish uchun qoʻllaniladi.


Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Ruboiy

Oʻziga xosligi




Farqli jihati



Tuyuq


Oʻziga xosligi



Beshinchisi ortiqcha”metodi

O’rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish; hosilbo’lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo’lgan to’rtta va taalluqli bo’lmagan bitta tushunchaning o’rin olishiga erishish;

Talabalarga mavzuga taalluqli bo’lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish, talabalarni o’z xarakatlari mohiyatini sharhlashga undash lozim. Ushbu o’rinda ruboiy va tuyuq janrida ijod qilgan ijodkorlar keltirilib, ulardan bittasi ortiqcha. Talabalar shu ijodkorlar haqida qisqa ma’lumot berib, ruboiy va tuyuq janrida ijod qilmagan



Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma’ruza matnini o’qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo’yib chiqing:
V – bilaman
+ - men uchun yangi ma’lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi
- ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

1. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

Savol va topshiriqlar

1. "Xazoyinul maoniy" da tartib bo'yicha g'azaldan keyin qaysi janr kiritilgan?
2. Ruboiy so'zining lug'aviy ma'nosi nima?
3. Navoiy ishqni nechaga bo'ladi?
4. Alisher Navoiy davrida san'at, fan darajasiga ko'tarilgan janr.
5. Tuyuq haqida ma'lumot bering.
6. Navoiy o'zining ustozlari deb kimlarni ko'rsatadi?

Test nazorati.

1. Aruzning hazaj bahrida yoziladigan janr qaysi?

- A) *ruboiy
- B) tuyuq
- C) qit'a
- D) fard

2. Tuyuq janrining vaznini ayting.

- A) * ramali musaddasi maqsur
- B) hazaji musammani maqsur
- C) hazaji musaddasi maqsur
- D) mutaqoribi musammani maqsur

3. Navoiy o'z asarlarida qaysi janrga ta'rif bergan.

- A) * tuyuq
- B) ruboiy
- C) qit'a
- D) fard

4. Tuyuq janrida ijod qilgan shoirlar nomini keltiring.

- A) * Lutfiy, Navoiy
- B) Atoy, Sakkokiy
- C) Navoiy, Atoy
- D) Atoy, Gadoyi

5. Tajnis nima?

- A) * bir xil shaklga ega bo'lgan so'zni turli xil ma'noda qo'llash
- B) she'rda shakli har xil, ma'nosi yaqin so'zlarni qo'llash
- C) she'rda ko'p ma'noli so'zlarni qo'llash
- D) she'rda zid ma'noli so'zlarni qo'llash.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi. // 2016 yil 16 dekabr.
2. Karimov I. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish haqidagi farmon // “Xalq so‘zi, 14 may.
3. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003.
4. Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni. Xalqaro ilmiy konferentsiya. – Navoiy: O‘zbekiston, 2017
5. Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. 1-2 jildlar / Mas’ul muharrir Sh.Sirojiddinov. – T.: Sharq, 2016
6. Jumaniyozova M. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. Ped. fanl. nom. diss. avtoreferati. – T.: 2007
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: Iste’dod, 2009
9. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996.
10. Yo‘ldoshev Q. Globallashayotgan dunyo va o‘qitishning interfaol usullari. // Xalq ta’limi. 2007. 6-son.
11. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2011
12. Rajabova I. Kasb-hunar kollejlari adabiyot darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish yo‘llari. Ped. fanl. nom. diss. avtoreferati. –T.: 2011
13. Saribaeva M. Alisher Navoiy epik asarlarini interfaol usullarda o‘rganish. – T.: Adib, 2014

14. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011
15. Ta’lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o’rni. An’anaviy XII respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Samarqand: SamDAQI nashri, 2015.
16. To’xliiev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
17. Yusupova D. O’zbek mumtoz va milliy uyg’onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri) – T.: Tamaddun, 2016
18. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o’qitish muammolari va yechimlar. –T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009
19. Hayitov A., Boymurodov N. Ta’limda noan’anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
20. Husanboeva Q. 6-sinfda Navoiy ijodini o’rganish. Metodik tavsiya. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2001.
21. Husanboeva Q. 5-sinfda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’rganish. Metodik tavsiya. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2002.